

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 2-iyul chorshanba №26(9559)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Yildan yilga bolalar nimjon bo'lib ketyapti. Menimcha, buni barcha jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari sezdi. Qolaversa, koronavirus payti jismoniy faollik qanchalik kerakligini angladik. Nahotki shundan keyin ham jismoniy tarbiya fani soatlari qisqartirilsa?

Husniobod OLIMOVA

Afsuski, aksariyat o'quvchilar 10-11-sinfga o'tganidan keyin o'qimayapti. Ularni maktabga keltirish uchun sinf rahbari ertalab ota-onalarga telefon qilib chiqadi. Kelganlarining ham sumkasi bo'm-bo'sh, darslik olib kelmaydi. Faqat telefon ko'tarib keladi. Nazarimda yuqori sinf o'quvchilari uch yil umrini maktabda havoga sovrarmoqda. Undan ko'ra o'quvchilar 9-sinfgacha o'qitilib, keyin qiziqishlari bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirilsa, oliy ta'limda o'qishni davom ettirishni xohlaganlar bemalol repetitora borsa, balki yaxshi bo'lardi...

Xo'jamqul TO'RAXONOV

Husan KARVONLI:

Andijonga GROSSMEYSTER

KERAK EMASMI?



9-bet

Baxtiyor MENGLIYEV:

TIL MUHANDISI –
RAQAMLI DAVR
FILOLOGI



23-betlar



Dolzarb mavzu



So'nggi yillarda sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tarjima, chatbot va matn korpuslari kabi texnologiyalar kundalik hayotimizga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bu jarayon, tabiiyki, til va tilshunoslik bilan bog'liq kasblar mohiyatini ham o'zgartirayotir. Endi tilni faqat o'rganish yoki o'rgatish emas, balki uni kompyuterga "tushuntirish", kompyuter "savodxonligi"ga erishish zarurati paydo bo'ldi.

Ayni sharoitda yangi bir kasb – til muhandisligi oldinga chiqmoqda. Bu mutaxassis tilshunoslik bilimlarini algoritmik tafakkur, dasturlash va raqamli texnologiya bilan birlashtira oladigan zamonaviy filologdir. Afsuski, O'zbekistonda bu kasb hali rasman shakllanmagan: oliy ta'lim tizimida alohida mutaxassislik sifatida mavjud emas, kasblar klassifikatorida nomi ko'rsatilmagan, ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlari esa hali akademik muhitga yetib borganicha yo'q. Bu maqolada raqamli davrda filologik kasblar qanday o'zgarayotgani, "til muhandisi" kasbining vazifalari, ta'lim va tadqiqotlar bilan bog'liqligi, shuningdek, uni rasmiylashtirish zarurati tahlil qilinadi. Maqsad – jamiyat e'tiborini bu yangi, istiqbolli va zarur kasb sari yo'naltirish.

AN'ANAVIY FILOLOGIK KASBLAR VA ULARNING HOZIRGI HOLATI

Filologiya inson tafakkuri, tili va madaniyatining o'zagi hisoblanadi. Uning asosiy yo'nalishlarida shakllangan kasblar – yozuvchi, tarjimon, muharrir, adabiyotshunos va tilshunoslar – har bir millatning ma'naviy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Bu kasblar nafaqat ilmiy va estetik merosni yaratgan, balki uni saqlagan va targ'ib qilgan. Tarix davomida yozuvchilar jamiyat ruhiy olamini ifodalab, adabiyotshunoslar esa asarlarni chuqur tahlil qilib, estetik mezon va badiiy qadriyatlarini shakllantirgan. Tarjimonlar dunyo xalqlari o'rtasida til, madaniyat va tafakkur ko'prigi bo'lib xizmat qilgan. Ammo XXI asr texnologik inqiloblar asri sifatida ushbu kasblarning an'anaviy shaklini o'zgartirib yubordi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida filologik kasblarning faoliyati yangi formatlarda qayta ko'rilmogda. Bugungi yozuvchi ijtimoiy tarmoqlardagi kontent muallifiga aylanishi mumkin, muharrir esa faqat grammatikani emas, balki dizayn, SEO va foydalanuvchi tajribasi(UX)ni ham tushunishi kerak. Tarjimonlar endi nafaqat lingvistik bilim, balki texnik, huquqiy, tibbiy yoki algoritmik matnlar bilan ishlash salohiyatiga ega bo'lishi lozim.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida ham katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Matn korpuslari, sun'iy intellekt yordamida tilni tahlil qilish, avtomatik sintez va tahlil, hatto mashina tarjimasini kabi jarayonlar ham inson faoliyatining ko'p jihatlari ta'sir qilmoqda. Bu filologiya sohasida yangi, multikompetensial mutaxassis – "til muhandisi" kasbiga zarurat tug'diradi. Chunki zamonaviy jamiyatda filolog nafaqat madaniyat va til, balki algoritm va raqamli tizimlarda ham "fikrlay" olishi kerak.

Ko'rinadiki, an'anaviy filologik kasblar bugun yangi ko'rinishda qayta shakllanmoqda. Bu filologiyaning texnologik bosqichini boshlab beruvchi professional – "til muhandisi" kasbining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

RAQAMLI INQILOB VA FILOLOGIYA FANIGA YANGI TALABLAR

XXI asrda yuz bergan raqamli inqilob butun fanlar tizimi, xususan, filologiyaga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt-

ning rivojlanishi natijasida til bilan bog'liq jarayonlar avtomatlashtirilmoqda. Endilikda matnni tahlil qilish, tarjima, teglash, xatolarni tuzatish kabi filologik faoliyat turlari dasturiy vositalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu filologik bilimlar yetarli bo'lmagan, yangi – texnologik bilimlar majmuasiga ega mutaxassislarni talab qilmoqda. Ya'ni filolog faqat til va adabiyotni emas, balki kod yozish, semantik modellashtirish, algoritmni tushunish kabi kompetensiyalarga ham ega bo'lishi zarur. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi mashina tarjimasini tizimlari(Google Translate, DeepL, Translate, Yandex Translate) til muammolarini nafaqat grammatik, balki semantik darajada hal etishga harakat qilmoqda. Bunda tarjima sifati, kontekstga moslik, pragmatik ifoda kabi jihatlarni filologlar ishtirokisiz to'laqonli ta'minlab bo'lmaydi. Shuning uchun bugun bu texnologiyalar ortida filolog-muhandislar, ya'ni tilshunos va dasturchilikni birlashtira olgan yangi kasb egalari ishlayapti. Ular mashina tarjimasini tizimlariga ma'no, tuzilma va uslubiy qatlamlar kiritish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, matn korpuslarini yaratish va ulardan ilmiy va amaliy tahlil vositasi sifatida foydalanish ham filologiyaning texnologik burilishidir. O'zbek tili korpuslari til qoidalarini sun'iy intellektga tushunarli shaklda ifodalashni talab qiladi. Bunda semantik teglash, morfologik analiz, sintaktik strukturani avtomatlashtirish kabi murakkab ishlar filolog va dasturchining birgalikdagi mehnatini talab etadi.

Tarmoq lingvistikasi, ya'ni internetdagi matnlar oqimini tahlil qilish(ijtimoiy tarmoq, veb-sayt va bloglar) yangi usullar – lemmatizatsiya, klasterlash, matn tasnifi va emotsional tahlil kabi uslublarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda tilshunoslar ijtimoiy kontekst va til xususiyatlarini tushunib, texnologlarga zarur tushunchaviy asosni beradi.

Demak, texnologiya va til o'rtasida integratsiya bo'lmasa, zamonaviy tilshunoslik to'laqonli rivojlana olmaydi. Bu filologiya faniga yangi talablar – raqamli savodxonlik, dasturlash bilimlari va algoritmik tafakkurni ham qo'shadi. Shuning uchun bugungi raqamli jamiyatda an'anaviy filolog emas, balki texnologik kompetensiyalarga ega filolog – ya'ni til muhandisiga zarurat kuchaymoqda.

"TIL MUHANDISI" KASBining MOHIYATI: KIM VA NIMA ISH QILADI?

Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda til bilan ishlovchi mutaxassislarning roli o'zgarib bormoqda. Endilikda nafaqat adabiy asarlarni tahlil qiluvchi yoki tarjima qiluvchi filolog, balki kompyuter tizimlariga tilni "o'rgatadigan", sun'iy intellekt modellarini til asosida shakllantiradigan yangi avlod mutaxassisi – til muhandisi(language engineer) paydo bo'lmoqda. Bu kasb filologiyaning texnologik burilish nuqtasida shakllangan, tilshunoslik, informatika va sun'iy intellektning tutashgan nuqtasida joylashgan.

Til muhandisi kim? U – tabiiy til bilan ishlaydigan va uni algoritm orqali mashinaga tushunarli qilishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. Til muhandisi matnlarni morfologik tahlil qiladi, semantik teglashni amalga oshiradi, so'zlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi, nutq qismlarini avtomatlashtiradi va til modellarini yaratishda ishtirok etadi. Bunday mutaxassislarning sun'iy intellekt tizimlarining tilga oid qismida(chatbot, ovozi yordamchi, avtomatik tarjima, nutqni tanish tizimlari, grammatik analizatorlarda) ishlaydi.

Til muhandisining asosiy faoliyat yo'nalishlari qatoriga leksikografik bazalar yaratish, til korpuslarini teglash va modellashtirish, mashinaviy o'rganishga asoslangan til modellari qurish, semantik-tarjimonlik tizimlarini ishlab chiqish kiradi. U, shuningdek, matnlarni avtomatik yaratish(text generation), tahlil qilish(text analytics), tavsiyalar berish(recommender sys-

tems) kabi vazifalarni ham bajaradi. Bularning barchasi tabiiy tilni qayta ishlash(NLP – natural language processing)yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan qaraganda, til muhandisi – raqamli asrning yangi filologi. U nafaqat tilning mazmuniy qatlami, balki tuzilmasini ham algoritmik darajada tushunadi va uni mashina uchun ishlaydigan formatda ifoda eta oladi. Filologiyaning an'anaviy yo'nalishlari – tahlil, izoh, tarjima, sistemalashtirish – endi dasturiy muhitda bajariladi va bu jarayonda til muhandisi asosiy vositachiga aylanadi.

Shunday qilib, "til muhandisi" kasbi filologiyaning texnologik yo'nalishda qayta shakllanishi natijasida vujudga kelgan zamonaviy kasb, yaqin yillarda unga bo'lgan ehtiyoj keskin ortib ketishi shubhasiz.

ILMIY-TADQIQOTLARDA TIL MUHANDISLIGINING O'RNI

Til muhandisligi nafaqat amaliyot, balki ilmiy-tadqiqotlar doirasida ham tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Bu soha korpus lingvistikasi, semantik tahlil, sintaktik teglash kabi zamonaviy tilshunoslik metodlari orqali tilni chuqur va tizimli o'rganish imkonini yaratadi. Ayniqsa, kompyuter yordamisiz tahlili murakkab bo'lgan til birliklari(masalan, barqaror birikmalar, sintaktik konstruksiyalar, kontekstual ma'nolar)ni avtomatlashtirilgan modellar yordamida tahlil qilish imkoniyati ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirmoqda.

Korpus lingvistikasi bugungi kunda filologik tadqiqotlarning asosiy tayanchi hisoblanadi. Yirik matnlar bazasi – korpuslar yordamida leksik birliklarning qo'llanish chastotasi, semantik o'zgarishlari, uslubiy xususiyatlari aniqlanadi. Til muhandisi bu korpuslarni nafaqat tuzadi, balki ularni morfologik, sintaktik, semantik teglar bilan belgilaydi. Shu yo'l bilan til modellarining "mashinalar"ga tushunarli ko'rinishda taqdim etilishi ta'minlanadi. Masalan, "O'zbek tilining milliy korpusi" yoki "Ko'hna matnlar korpusi" kabi loyihalar til muhandisligisiz to'liq ishlay olmaydi. Semantik tahlil so'zlar orasidagi ma'no bog'liqligini aniqlash, konnotatsiyalarni ajratish, sinonimik-paradigmatik qatlamlarni modellashtirishni o'z ichiga oladi. Bu usul, ayniqsa, tarjima, izohli lug'atlar yaratish, avtomatik savol-javob tizimlari tuzishda muhim. Sintaktik teglash gap qurilishi, bog'lovchilar va turli sintaktik rollarning avtomatlashtirilgan tahlilidir. Bu usullar bugungi dunyo tilshunosligida til muhandisligi orqali chuqur tadqiq qilinmoqda.

Xorijiy tajribada til muhandisligi allaqachon ilmiy va tijoriy sohaga aylangan. Google til modeli (PaLM, Gemini), DeepL tarjima tizimlari, Yandex Translate, Metaning ko'p tilli sun'iy intellekt loyihalarida tilshunos muhandislar faol ishtirok etmoqda. Ular tilni formal tizimlarga aylantirish, ma'lumotlarni semantik asosda belgilash, lingvistik algoritmilar yaratish bilan shug'ullanadi. Ayniqsa, ChatGPT kabi model ishlab chiqishda ham tilshunoslar tarmoq grammatikasi, pragmatik modellashtirish, diskurs bog'liqligini hisobga olgan holda asosiy ilmiy kuch sifatida qatnashgan.

Umuman olganda, til muhandisligi nafaqat tilga oid texnologiyalarni rivojlantirish, balki filologiyaning ilmiy salohiyatini zamonaviy shaklda kengaytirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbek tilini raqamli formatga o'tkazishda bu soha mutaxassislari ehtiyoj kundan kunga ortmoqda.

TIL MUHANDISLARINI TAYYORLASH: O'ZBEKISTONDA TA'LIM YO'NALISHLARI

Bugungi raqamli jamiyatda tilshunoslikning texnologik yo'nalishda rivojlanishi natijasida "til muhandisi" kasbiga ehtiyoj kuchaymoqda. Bu kasb egasi sun'iy intellekt tizimlarida tilni formal tarzda model-

RAQAMLI DAVR FILOLOGI



lashtiradi, kompyuter dasturlarida tabiiy tilni qayta ishlashga doir funksiyalarni ishlab chiqadi va raqamli til xizmatlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ushbu kasbga maxsus tayyorlash tizimi zarur.

O'zbekistonda hozir kompyuter lingvistikasi yo'nalishi bir necha universitetda mavjud, bu sohada bakalavriat va magistratura dasturlari yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalishlarda leksikografiya, morfologik analiz, mashina tarjima asoslari, matnlar korpuslari bilan ishlash kabi fanlar o'qitiladi. Bu tilshunoslikni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish yo'lida muhim qadamlardan. Shu bilan birga, amaliy va sanoatga yo'naltirilgan til muhandisligi ta'lim modeli hali to'liq shakllanmagan. Ko'p hollarda mavjud kurslar an'anaviy nazariy asoslar bilan cheklanadi, dasturlash tillarini (masalan, Python, R), mashinaviy o'rganish algoritmlari, tarmoq lingvistikasi, sun'iy intellekt etikasi, annotatsiya vositalari bilan amaliy ishlash komponentlari yetarli darajada qamrab olinmagan. Bu esa xalqaro tajribaga nisbatan orqada qolishga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya zarur: filologiya, informatika, sun'iy intellekt va logika fanlari uzviy bog'lanib, yagona o'quv modellarini yaratishi kerak. Masalan, "NLP asoslari", "Korpuslar bilan ishlash", "Til va algoritim", "Semantik tahlil: amaliy mashg'ulotlar", "SI va til etikasi" kabi maxsus fanlar kiritilishi lozim. Bunday yondashuv til muhandislarini texnologik salohiyatli, bozor talablariga javob beradigan mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini beradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda kompyuter lingvistikasi mavjud bo'lsa-da, bu sohada til muhandisligini mustaqil kasb va ta'lim modeli sifatida shakllantirish, unga innovatsion, amaliy va texnologik komponentlarni qo'shish orqali yangi bosqichga olib chiqish vaqti keldi.

ISHLAB CHIQUVCHILAR VA TARMOQ EHTIYOJLARI: TIL MUHANDISIGA TALAB BOR

Bugungi raqamli iqtisodiyotda mahsulotlar nafaqat texnik funktsionalligi, balki til bilan ishlash qobiliyati orqali ham raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Mobil ilovalar, saytlar, sun'iy intellekt vositalari, chat botlar, tarjima xizmatlari, ovoz bilan boshqariluvchi tizimlarda til muhandisi kabi yangi tipdagi mutaxassisga ehtiyoj ortmoqda. Chunki bu tizimlar foydalanuvchi bilan muloqot qilishda tilni nafaqat formal, balki semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan tushunadigan modelga ehtiyoj sezadi. Masalan, matnni avtomatik tahlil qilish(text mining) sohasida til muhandisi matnni morfologik va sintaktik teglar bilan belgilaydi, mazmuniy strukturalarni aniqlaydi, shuningdek, nutq qismlari, modal ifodalar va konnotativ ma'nolarni ajratadi. Shu tahlillar asosida reklama tizimlari, kontent tavsiyalari, emotsional monitoring yoki axborot xavfsizligi tizimlari ishlab chiqiladi.

Chat bot va ovozi yordamchilar – sun'iy intellekt

asosida ishlovchi muloqot tizimlari – til muhandisining doimiy ishtirokisiz ishlay olmaydi. Chatbot foydalanuvchi tilidagi savolni sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan to'g'ri tushunishi, mantiqan mos javob berishi uchun uni tilshunoslar tomonidan belgilangan modellarga "o'qitish" zarur. Bu jarayonda til muhandisi asosiy vositachi hisoblanadi.

Avtomatik tarjima tizimlari(masalan, davlat hujjatlarini tarjima qiluvchi tizimlar, notarial platformalar, tilga moslashtirilgan elektron hukumat xizmatlari) ham til muhandisi tomonidan yaratilib, lug'at bazalari, sintaktik moslik va kontekstual tarjima mexanizmlari asosida ishlaydi. Raqamli mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun til bilan ishlay oladigan texnologik filolog mutaxassislar tengsiz kadrlar bo'lib bormoqda.

O'zbekistonning o'zida ham bunday mutaxassislariga ehtiyoj sezilmoqda. MyID – shaxsni avtomatik aniqlash tizimi, Davr AI – sun'iy intellekt asosidagi ovozi xizmatlar, Asaxiy AI – kitoblar uchun avtomatik tavsiya va tahliliy tizimlar tilshunos muhandislarning ishtirokini talab qiladi. Afsuski, hozircha bu kompaniyalar filologik bilimga ega texnolog mutaxassislarni topishda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Ko'rinadiki, raqamli sanoatda til muhandisiga ehtiyoj nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu kasb – texnologiyani til bilan bog'laydigan ko'prikdir.

TASHKILIY VA INSTITUTSIONAL MASALALAR: YO'NALISH YARATISH, LABORATORIYALAR, GRANTLAR

Til muhandisligi hozircha O'zbekistonda to'liq shakllanmagan, ammo zamon talabi bilan kun tartibiga chiqayotgan strategik kasb yo'nalishidir. Bunday kasbni rivojlantirish faqat alohida shaxsiy tashabbus yoki tasodifiy loyihalar orqali emas, balki institutsional va tashkiliy asosda, tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi zarur. Ayni paytda bu borada uchta muhim muammo mavjud: yo'nalishning rasmiy shakllanmaganligi, laboratoriya va texnologik infratuzilmalarning yo'qligi hamda davlat grantlari tizimining bu sohani e'tibordan chetda qoldirayotganidir. Demak:

- birinchidan, universitetlar qoshida lingvotexnologik laboratoriyalar tashkil etilishi zarur. Bunday laboratoriyalar korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash(NLP), mashina tarjima, ovoz tanish, avtomatik matn tahlili, emotsional semantika va til modellari bilan ishlashga mo'ljallangan platforma bo'lishi kerak. Bu laboratoriyalarda filologiya va informatika fakultetlari birgalikda tadqiqotlar olib borishlari, talabalar amaliy loyihalarda qatnashishlari va ilm-fanni sanoatga bog'lovchi mexanizm sifatida ishlashi zarur;

- ikkinchidan, davlat buyurtmasi va grantlar tizimi til muhandisligiga nisbatan hali sust. Innovatsion rivojlanish agentligi, OAK, Fanlar akademiyasi, Ichki ishlar va Raqamli texnologiyalar vazirliklari hamon bu

sohaga aniq buyurtmalar shakllantirmagan. Yangi korpuslar, lingvistik dasturlar, avtomatik tarjima tizimlari yaratish bo'yicha grantlar deyarli yo'q. Aksincha, bu boradagi tashabbuslar xorijdan yoki sanoatning ichki ehtiyojlaridan tug'ilmoqda. Bu holat esa ilmiy potensialni to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda;

- uchinchidan, akademik muhit va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida uzviy aloqa yetarli emas. Filolog olimlar ko'pincha texnologik kompaniyalar bilan bog'lanmaydi, texnologlar esa tilni chuqur tahlil qiladigan mutaxassislarga muhtoj. Bu bo'shliqni bartaraf etish uchun til muhandisligi institutlararo va tarmoqlararo hamkorlik asosida rivojlantirilishi shart.

Ayonki, O'zbekistonda til muhandisligi yo'nalishini barpo qilish uchun rasmiy ta'lim yo'nalishi, grantlar, laboratoriyalar va ilm-sanoat hamkorligi yo'lga qo'yilishi zarur. Aks holda, bu strategik soha imkoniyat bo'lib qolaveradi, amaliyotga esa to'liq o'tmaydi.

KASBLAR KLASSIFIKATORIDA "TIL MUHANDISI" KASBINING YO'QLIGI

Bugungi kunda O'zbekistonda ilm-fan va ishlab chiqarishning raqamli transformatsiyasi kuchayib borayotgan bir paytda kasblar tasnifi ham zamon talablari asosida yangilanmoqda. Biroq O'zbekiston Respublikasi kasblar klassifikatorida hali ham "til muhandisi"(language engineer) degan kasb nomi mavjud emas. Tilshunoslik va texnologiya integratsiyasi asosida yuzaga kelgan bu mutaxassislik axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va tabiiy til bilan ishlash sohalarida faoliyat yurituvchi yuzlab yoshlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lsa-da, u rasmiy tan olinmagan.

Hozirgi klassifikatorda mavjud bo'lgan "filolog", "tarjimon", "muharrir", "kompyuter dasturchisi" kabi kasblar orasida texnologik tilshunoslikka ixtisoslashgan mutaxassisni aniq ifodalovchi yondashuv yo'q. Vaholanki, til muhandisi – nafaqat tilni biladigan, balki sun'iy intellekt, algoritmik tahlil, semantik tizimlar, korpus tuzish va mashina tarjima bilan ishlay oladigan ko'p kompetensiyali mutaxassisdur. U tilshunoslikni dasturlash bilan birlashtiradi va kompyuterga tilni "tushuntira" oladigan yagona mutaxassisdur. Shuning uchun "til muhandisi" kasbini alohida yo'nalish sifatida davlat klassifikatoriga kiritish muhim. Bu nafaqat yangi avlod mutaxassislarning ijtimoiy-huquqiy maqomini belgilaydi, balki oliy ta'limda mos yo'nalishlar, mehnat bozorida malaka standartlari va grantlar tizimini shakllantirishga imkon beradi. Bu kasb AT va filologiya sohalarini bog'lovchi strategik vositaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli inqilob sharoitida har bir soha zamon bilan hamnafas bo'lishga majbur bo'lmoqda. Filologiya ham bundan mustasno emas. Avvallari til faqat madaniy merosni saqlash va estetik qadriyatlarini targ'ib qilish vositasi bo'lsa, bugungi kunda u algoritmik ifoda, axborot modeli va sanoat resursiga aylanmoqda. Til bilan ishlash jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, sun'iy intellekt tizimlari tilni tushunishga urinmoqda, chat botlar, tarjima tizimlari va matnli tahlil xizmatlari ommalashmoqda. Bular tilni chuqur tushunadigan va texnologik yechimlarga ko'cha oladigan yangi turdagi mutaxassis – til muhandisini zarur qilib qo'ymoqda. O'zbekiston sharoitida bu kasb hali to'liq shakllanmagan: u oliy ta'lim yo'nalishlarida mustaqil tarzda ajratilmagan, kasblar klassifikatorida aks etmagan, grant va davlat buyurtmalarida inobatga olinmagan. Ammo jamiyat, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish sohasi bu kasbga kuchli ehtiyoj sezmoqda. Shuning uchun til muhandisligini filologiyaning yangi bosqichi sifatida tan olish va uni rasmiylashtirish – strategik zarurat. Bu qadam O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tishida muhim ilmiy-amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor



2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

“YASHIL” IQTISODIYOT: TA'LIM SIFATIGA IJOBIY TA'SIRLAR



Jahon miqyosida global iqlim o'zgarishi va tabiat resurslarining cheklanganligi muammolari kuchayib bormoqda. Yashil iqtisodiyot tushunchasi bunday vaziyatga javob sifatida paydo bo'ldi. Yashil iqtisodiyot tabiatga zarar yetkazmay, uning resurslaridan samarali foydalanishga va tabiat muhitini saqlashga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni nazarda tutadi. Bu ta'lim sifatiga, xususan, muhitga doir ma'lumotlar va ko'nikmalarni o'rgatishda, iqtisodiy va ijtimoiy adolatni ta'minlashda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yashil iqtisodiyot odamlarning turmushini, shu bilan birga atrof-muhit holatini yaxshilash va tabiiy resurslar tanqisligini kamaytirishga qaratilgan. O'z navbatida uni shakllantirish zarur kadrlar tayyorlashni talab qiladi. Dunyo bo'ylab **yashil ish o'rinlari** deb nomlangan tadqiqotlar sohasiga qiziqish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

2019-yil 4-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda ta'limga investisiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga yashil iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish kabi masalalar O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari etib belgilangan.

Shuningdek, 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilingani Yangi O'zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi.

Yashil iqtisodiyotning ta'lim tizimiga ijobiy ta'sirini quyidagi vazifalarda ko'rish mumkin:

1. Talabalarning ekologik savodxonlik darajasini oshirish.
2. Innovatsion fikrlashni rivojlantirish.
3. Kasbiy yo'nalishlarni kengaytirish.
4. Ta'lim mazmunini yangilash.

O'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish murakkab va uzoq jarayondir. Uning natijasi nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalarni egalash, balki hissiy sezgirlikni rivojlantirish, tabiiy muhitni faol himoya qilish, yaxshilash hamda yaxshilash qobiliyati va istagi bo'lishi kerak. Muayyan ekologik tushunchalarni olgan talabalar tabiatga nisbatan ehtiyotkor bo'lishadi. Kelajakda bu mintaqamizda va mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga ta'sir qilishi mumkin.

Maktab yoshidagi bolalarda ekologik madaniyatni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida miyaning dominant

yarimshariga qarab atrof-dagi dunyoni, hodisalar va bilish uslublarini idrok etish usullaridagi farqlarni hisobga olish maslik mumkin emas. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chalarida, qo'shimcha ta'lim muassasalarida, maktablarda va hatto oilalarda mavjud bo'lgan ta'lim modeli faqat chap yarimsharni rivojlantirishga, ya'ni bolalarning dunyoni yaxlit tarzda emas, balki bosqichma-bosqich idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Inson nafaqat boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini, balki o'z ichki suhbat aloqasi texnikasini o'zlashtirish orqali shaxs sifatida rivojlanadi. O'z ichki dialogini o'tkazish qobiliyatini o'zlashtirish o'smirlik davrida sodir bo'ladi.

Sog'lom axloq – bu muayyan axloqiy vaziyatda doimiy ravishda tanlov qilish, ichki dialog o'tkazish qobiliyati. O'smirlar o'zini takomillashtirishda yordam berishga intilayotgan o'qituvchi muloqotni shunday qurishi kerakki, vazifalarni tanlash va belgilash u tomonidan o'z harakati sifatida boshdan kechirilsin. Bu yagona samarali munosabatlar modeli. Faoliyatning o'yin va amaliy shakllarini o'z ichiga olgan o'z-o'zini kashf etish jarayonlarining boshlanishi o'spirinlarda tabiatga ekologik jihatdan qimmatli munosabatni shakllantirishga va axloqiy o'zini takomillashtirishga turtki berib, yosh insonda ma'naviy prinsipni rag'batlantirishga imkon beradi.

Bugungi kunda amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar ishtirok etadigan faoliyat mazmuni, yoshidan qat'i nazar:
◆ bolalarning bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirish manfaatlari uchun ekologik ta'limni iqtisodiy ta'lim bilan birlashtirish;

◆ muhim ekologik-madaniy va sog'lomlashtirish salohiyatiga ega turizm va o'lkashunoslik ishlarini o'quv jarayoniga kiritish;

◆ uni yanada jozibali qilish uchun qo'shma faoliyatni aloqa, o'yin va ijodkorlik bilan to'ldirish;

◆ uyda va maktabda ekologik qadriyatlarga e'tibor qaratadigan maxsus muhitni yaratish (sog'lom turmush tarzi, munosabatlar madaniyati, hissiy sezgirlik, hovli, ko'cha, tuman, shaharni obodonlashtirishda amaliy ishtirok etish);

◆ maktab o'quvchilarining pesimizmini yengish uchun odamlarning tabiiy faoliyatining ijobiy misollariga murojaat qilish orqali boyitilishi kerak.

Zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish uchun sanoat sivilizatsiyasini o'zgartirish va jamiyat uchun yangi poydevor yaratish kerak, bu yerda ishlab chiqarishning asosiy maqsadi insonning muhim ehtiyojlarini qondirish, tabiiy va mehnat bilan yaratilgan boyliklarni bir xil va insonparvarlik bilan taqsimlash bo'ladi.

Tabiatni muhofaza qilish hammaga bevosita ta'sir qiladi. Hamma odamlar Yerning bir xil havosidan nafas oladilar, har bir odam suv ichadi, oziq-ovqat iste'mol qiladi, insonlarning molekullari Sayyora biosferasidagi materiyaning cheksiz aylanishida doimiy ishtirok etadi. Ehtimol, dunyodagi ekologik vaziyatni to'g'irlash uchun hali ham imkoniyat bor va biz biosferada buzgan narsalarimizni tiklash va tabiat bilan uyg'unlikda yashashni o'rganish uchun ushbu imkoniyatdan foydalanishimiz kerak.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha loyihalar O'zbekistonda ham jadal amalga oshirilmoqda. Jumladan, Samarqand, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish ishlari bunga misol. Loyiha Abu Dhabi Future Energy Company (Masdar) tomonidan ishlab chiqilgan. Markaziy Osiyodagi eng yirik quyosh elektr stansiyalarini o'z ichiga oladi. Samarqand va Jizzaxdagi stansiyalarning har biri 220 megavatt quvvatga ega va Sherobodagi stansiya 1457 megavatt quvvatga ega.

Uchquduq tumanida 1000 megavattli shamol stansiyasi loyihasi amalga oshsa yiliga 3,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi, bu esa 1 milliard kubometr tabiiy gazni tejash va atmosferaga chiqadigan zararli chiqindilarni 1,4 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Masdar kompaniyasi loyihalariga Zarafshonda shamol elektr stansiyasi, Karmana va G'allaorolda quyosh elektr stansiyalari, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yangi fotoelektr stansiyalar qurilishi kiradi.

ACWA Power kompaniyasi O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari aksiyadorlik kompaniyasi va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan elektr energiyasini sotib olish bo'yicha uchta shartnoma va investitsiya bitimlarini imzoladi. Ushbu shartnomalar Toshkent va Samarqandda uchta quyosh fotoelektr loyihasini, shuningdek, Toshkent, Buxoro va Samarqandda uchta akkumulyator energiyasini saqlash tizimini ishlab chiqishni qamrab oladi.

2030-yilga kelib, O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvatini 20 gigavatt dan oshirishni rejalashtirmoqda, bu umumiy energiya

balansining qariyb 40 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston universitetlarida “yashil” iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha biotexnologlar, qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha muhandislar, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, bioiqtisodiyot va iqlim xavfini baholash bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Shuningdek, ular energiya tejaydigan tuzilmalarni loyihalash, ishlatish va qurish, energiya tejaydigan texnologiyalarni loyihalash, ishlatish va ishlab chiqarish, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazadilar.

Masalan, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekologiya fakultetida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash yo'nalishlari mavjud. Jumladan, 5630100 – “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi (o'qish muddati – 4 yil), 5A630102 – “Ekologiya” mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasi (o'qish muddati – 2 yil) va 03.00.10 – “Ekologiya” mutaxassisligi bo'yicha doktorlik darajasi (o'qish muddati – 3 yil).

Samarqand xalqaro texnologiya universitetida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish texnologiyalari va strategiyalari bo'yicha keng qamrovli kursni taqdim etadigan “Qayta tiklanadigan energiya manbalari” o'quv dasturi mavjud. Asosiy e'tibor fotoelektr va shamol energetikasi, shuningdek, gidroenergetika, bioenergetika, geotermik energiya va zamonaviy energiya saqlash texnologiyalariga qaratilgan.

MMFI Milliy tadqiqot yadro universiteti Toshkent filialida “Elektr energetikasi va elektrotexnika” o'quv dasturi mavjud (o'quv kursi – 03/13/02). Dastur elektr va tarmoq energetikasi sohasidagi mutaxassislarning chuqur fizik-matematik va muhandislik tayyorgarligiga asoslangan.

“Yashil” iqtisodiyot ta'lim tizimining sifat va mazmunini tubdan o'zgartirishi mumkin. U faqat ekologik bilimlarni berish bilan cheklanmay, innovatsion fikrlashni ham rivojlantiradi, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, “yashil” iqtisodiyotning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u ekologik bilimlarni oshirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish orqali namoyon bo'ladi. Bu ta'sirlar nafaqat ta'lim tizimini, balki butun jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Farhod TO'RABEKOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrası professori,
p.f.d. (DSc)



Dolzarb mavzu

Ustama mashmashalari



Mushtariylar bilan o'qituvchilar ish haqiga qo'shimcha beriladigan ustama haqidagi fikrlarimni o'rtoqlashishga "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhida bir post atrofidagi bahs, munozaralar sabab bo'ldi. Post va munozaralardagi fikrlarni sal quyiyoqda keltiraman, ungacha ish faoliyatim davomida o'zim guvoh bo'lganim ayrim holatlar bilan o'rtoqlashsam.



Bu yil ancha o'rnak ko'rsatgan ishlarim borligi uchun hujjat tayyorladim. Birinchi gal kengash a'zolari ko'rib 20 foiz belgilashdi. Yana chaqirib 15 foizga tushirishdi, bugun borsam ustamadan o'chirishibdi. Alam qildi, nimaga? Yana nohaqlik, ishlamaydigan, rahbarlarning "yalovdorlari" olarkan. Boshlang'ichda ishlaydiganlarga yo'q! Uchtagina nomzod olarkan, ularning "tili uzun".

Ta'limda shunday nohaqliklar boshqalarning ishdan sovushiga, qadrsizlanishiga olib keladi. Talab qilaman, TMMTB, VMNTB qoshida ilmi, xolis insonlardan komissiya tuzilsin. Ustama hujjatlar pdf shaklida jo'natilar ekan. Ko'rilsin, loyiq nomzodlarni shular aniqlasin(xolis bo'lsa, albatta).

Mayli, men ustamaga qarab qolgan joyim yo'q, lekin hadeb ishlagan qolib qing'ir yo'llar bilan davlatning pulini so'rayotganlarga hayfim keladi. Loyiqmas, darsni hani-huni o'tib qochadigan, "ommalashtirish"ni sotib olgan, repetitordagi o'quvchisining orqasidan rag'barlantirilayotganlar ustozlik maqomiga "besh". "Ma'rifat" o'qituvchilarning dard-u hasratini eshitadi degan umiddaman!"

Guruh a'zosi Xosiyatxon bu haqda quyidagi fikrni bildirib o'tdi:

"823-qaror chiqqandan so'ng boshqa maktablarni bilmadim-u, bizning maktabda ustama so'zi unutildi. Chunki qo'l yetmas darajada qilib qo'yildi, bir bandini bajarsang, bir bandi mushkul, bir bandini bajarish oddiy ish bo'lsa, bir bandiga ball olish muammo... Tirishib-tirmashib yetdimov desang, kengash a'zolari vahima qilib, ming chig'iridgan o'tkazishadi. Topib olgani "Qayta to'latishadi". E bor-e dedig-u, jamoa bilan birgalikda ustama muammosidan voz kechib yubordik-da, sertifikatga harakatni boshlab yubordik. Buniyam olish osonmas ekan, bir o'qituvchi o'tgan yili

Ustama joriy etilishidan maqsad o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishda ta'lim tizimining eng quyi bo'g'ini bo'lgan maktablar rolini oshirish, o'qituvchilarni ta'lim rivojiga qo'shgan shaxsiy hissasiga qarab rag'batlantirish bo'lganligini barchamiz bilamiz. Maktablarda direktor jamg'armasi tashkil etilib, o'qituvchilarga ustama berila boshlanganiga ham yigirma yil bo'libdi. Bu vaqt davomida tizim takomillashib, ajratiladigan mablag' esa kamayib bordi. Dastlab mazkur jamg'arma ish haqi fondining 15 foizini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda 8 foizga tushib qolgan. Ustama tayinlashning huquqiy asoslari ham takomillashib, inson omiliga deyarli o'rin qoldirmaydigan darajaga kelgan. Mehnat qil, natijaga erish va haqqingni ol.

Ustama tayinlashda o'qituvchilar faoliyati 9 ta mezon asosida, erishilgan aniq natijalarga ko'ra baholanaadi. "Sinfidan tashqari ishlar" (15 balgacha) va "Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan o'qituvchi faoliyatining baholanishi"(5 balgacha) hamda "O'quvchilar tomonidan o'qituvchi faoliyatining baholanishi"(5 balgacha) yo'nalishlaridagina o'qituvchiga belgilanadigan balni oshirish yoki kamaytirish mumkin. Ammo bu yo'nalishlarda ham aniq natijalarga ko'ra beriladigan ball belgilab qo'yilgan bo'lib, o'qituvchi o'z natijasi uchun bemalol talashib, tortishishi mumkin. Ammo aniq natijalarga ega bo'lsa... Aksincha holatlarda esa ustamaga qiziqmagan ma'qul...

Ustama joriy etilganidan buyon 35–40 foizdan kam ustama olganimni eslay olmayman. Ammo o'tgan yili natijalarim yaxshi bo'lmadi. Sarhisob qilinganda 10 foizga to'g'ri keldi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari 35 foiz, direktorimiz esa hech bo'lmaganda 25 foiz ustama belgilashmoqchiligini aytishdi. Ishchi guruh a'zosi bo'lgan matematika o'qituvchimiz ham ularning fikriga qo'shildi. Ammo men natijaga yarsa belgilangizlar degan fikrimda qat'iy turib oldim. Xullas, 10 foiz ustama belgilashdi. Uchchovlari ham mendan xafa bo'lishdi. Yangi yil arafasida ustamalar viloyat prokuraturasi tomonidan, keyinroq esa nazorat-taftish bo'limi tomonidan tekshirildi. Har uchchala hamkasbim qayta-qayta rahmat aytishdi. Chunki agar 25–35 foiz ustama olganimda, men bilan birga ular ham javobgar bo'lishar edi. Sababi, toifam oliy, 30 soat dars o'taman. Noqonuniy to'langan 15 yoki 25 foiz ustama anchagina mablag' bo'lardi. Ular esa kamida ma'muriy javobgarlikka tortilardi.

Endi "Ma'rifat" mushtariylari guruhida bahs-munozaraga sabab bo'lgan postni keltirib o'tsam.

Guruh a'zosi Hilola MAMAJONOVAning quyidagi posti guruh a'zolari o'zlarining muammolari bilan o'rtoqlashishlariga sabab bo'ldi:

"Men bugun maktabdan juda tushkun ahvolda keldim. Ustama g'alvasi. Ustamaga da'vogar bo'lmadim.

oldi, men shu yil aprelda 3-urinishda oldim. Olloh nasib etsa, 3 yilgacha 50 foiz ustama olaman. Maslahatim, maktabdan ustama olaman deb uringandan ko'ra sertifikatga harakat qilgan ma'qulroq ekan".

Shu o'rinda Xosiyatxon tasvirlagan holat aksariyat maktablar uchun xosligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Ko'pchilikning nazdida sertifikat uchun ustama oladigan o'qituvchilarga shuning o'zi kifoya, u qanday natijaga erishgan bo'lsa ham maktabdan beriladigan ustamaga da'vogarlik qilsa uyat hisoblanarmish.

O'qituvchi bo'laturib, mana shunday fikrlashning o'zi uyat mening nazarimda. Axir sertifikat uchun beriladigan ustama bu o'qituvchining bilimi, tajriba va mahoratiga beriladi. Bunda hech qanday limit va cheklovlar yo'q. Biliming yetsa sen ham ol. Oddiy misol, o'zim Milliy sertifikat uchun 50 foiz, maktab direktor jamg'armasi hisobidan 35 foiz ustama olaman. Va buning uchun uyalmayman.

Shu o'rinda maktab rahbariyatining natijaga erishgan o'qituvchilarning ustama olishiga qarshi bo'lishlarini umuman tushunmayapman. Bunday holatda o'qituvchilar va maktab faoliyati orqaga ketmaydimi?

Shu o'rinda guruh a'zosi Nazarovaning fikrlariga e'tiboringizni qaratam:

"Aziz hamkasblarim! Aytsam dilim, aytmam tilim deganlaridek, men ham yuqoridagi ustozlar xilidan ekanman. O'zim komissiya a'zoligidaman! 3 kun oldin 10 foizga ilindim, ustama hujjatlarining ballarini hisoblaganda, keyingi kun 15 foizga, bilmadim bugun shu ustama foizidan ham ayrildim.

Maktab direktori ichki buyruq qilib boshlang'ich sinflarda, olimpiada o'tkazishdi. 1-2-3-o'rinni ham mening sinfindagi o'quvchilar olishdi. Ommalash-tirishda 74 ball bilan viloyatga chiqdim.

Boshqa bandlardan hamma ishim bor. Sinfidan tashqari ishlar bandiga nechta fandan dars bersam, hammasidan to'g'arak o'tishim kerak ekan. Bu degani senga ustama yo'q, maktab veb-saytini yuritaman desam, u o'zing uchun deydi. Xullas, iltimos sizdan bizning ustozlarga sinfdan tashqari ishlar uchun degan bandga aniq ma'lumotni vazirlikdan olib bering".

Yuqorida aytgan fikrimning ko'zgudagi aksi, to'g'rimi? Axir bu ketishda o'qituvchilarning ishga bo'lgan qiziqishlari, intilishlari batamom o'ladi-ku.

Guruhning yana bir a'zosi Saidaxon MAMAJONOVAning e'tirozida ham jon bor:

"Demak, ko'p joyda muammo bir xil. Hujjat tayyorladim, balim 97 ga yetdi. Lekin 25 % bilan kifoyalashdi(maktabimizdagi eng yuqori foiz)... Fondga pul kam ajratilayotgan ekan, keyingi yillarda moddiy yordam oluvchilar ko'payibdi... Kamiga davlat tomonidan oladigan ustamam yetarli ekan..."

Saidaxonning "davlat tomonidan oladigan ustamam yetarli ekan..." degan gapidan sertifikat uchun ustama olar ekan degan xulosaga kelish mumkin. Maktabga rahbar bo'laturib mana shunday fikrlashning o'zi, mazkur rahbarlarning maktabda qorovullik yoki farroshlik qilishga ham layoqatsiz insonlar ekanini ko'rsatadi. Men bu fikrim bilan qorovul yoki farroshlarni kam-sitmoqchi emasman, balki ularning ham bu narsani tushunishini, bilishini ta'kidlamoqchiman.

97 ballik natijaga erishgan o'qituvchilarning qadriga yetmaydigan maktab rahbarlarini men tasavvur qila olmayman. Axir bunday o'qituvchilar maktablar o'rtasida talash bo'ladi-ku.

Fidoyi ustozlardan Gulchehrahon ASHUROVA:

"O'qituvchi bunday mashmashalardan qutulishi, adolat qaror topishi, dunyoqarashi tor, o'qituvchi mehnatining qadriga yetmaydigan, korruptsiyaga moyil rahbarlar, o'rinbosarlar... ga yana necha yil chidashi kerak ekan-a?"

"O'qituvchi – millat yuzi", degan purma'no fikrlar sarobmi?"

So'ngso'z o'rnida, ustama olishda muammolarga duch kelayotgan o'qituvchilarga maslahatim, natijalaringiz yetarli bo'lsa, sizning ustama olish huquqingizni maktab rahbariyati rad etish va cheklashga haqqi yo'q. Ishchi guruh belgilagan ball asosida belgilangan ustamani olishga haqlisiz.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Xitob

Ilm olishdan oldin o'zingizni ruhan tayyorlang

"Stakanni bo'shat!" degan ibora bor psixologlarda. Bu nima dersiz? To'la stakanga boshqa suyuqlik sig'maydi. Ilm olishdan oldin o'zingizni ruhan tayyorlang. Niyatni ulug' va butun qiling, oldingizga katta maqsad qo'ying, shu maqsadga erishish uchun har qanday mehnat-u mashaqqatga tayyorman deya ahd qiling, kibzni yenging! Va bu ko'rsatmalarga uzluksiz, qat'iy amal qiling. Miyangizning ilmga to'la ochilishi uchun "stakaningizni bo'shating, to'king!". Ya'ni "bilaman", "zo'rman" demang – bunda yuksalmaysiz. "Tayyorman!", "Ochiqman!", "Tashnaman!", "O'qiyman!", "Bajaraman!" deng. Aslo yutqazmaysiz. Ana shunda berilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirasiz, ana shunda maqsadga erishasiz. Hammangizga omad tilab o'z fikrlari, kechinmalari, anglamalarini yozib borishni niyat qilgan:

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi
47-maktab o'qituvchisi



Ibrat

O'shanda tuman axborot-kutubxona markazida tuman maktablari ijodkor o'quvchilari o'rtasida tanlov o'tkazilayotgan edi. Kutubxona direktori Muborak Isoqova hakamlar bilan tanishtirib, kekxa, faxriy ustoz Anvarjon Qobulovning nomini ham tilga oldi. 8-, 10-sinflardan iborat o'quvchilarning she'riyat, hikoya, maqola, esse yozish yuzasidan iqtidorlari sinovdan o'tkazildi. Ijod namunalarini o'qigan yoshlar orasidan g'oliblar aniqlanib, rag'batlantirildi.

Ezgu ish bardavom bo'lsin!

Anvarjon ota g'oliblarga o'z hisobidan pul mukofoti topshirayotib, o'quvchilarga faqat tanlovlar uchungina emas, balki o'zi uchun ko'proq o'qishi kerakligini, bu esa ma'naviy ozuqa olish, qolaversa, so'z boyligini oshirish, nutqning ravon bo'lishida eng muhim omil ekanligini uqtirdi. Shu bilan birga, o'zi tashkil etgan uy-kutubxonaga a'zo bo'lishlarini taklif qildi... Ertasiga bir guruh o'quvchilar ustozning taklifiga ko'ra uy-kutubxonaga yo'l oldilar. Bulqoboshining Kulla-Neftprom yo'nalishidagi mahallalardan birida joylashgan xonadon darvozasi peshtoqiga "Qobulov Mahmudjon xonadoni kutubxonasi", "Qobulov Mahmudjon muzeyi" yozuvlari ilib qo'yilgandi. Mehmonlarni xushnudlik bilan qarshi olgan xonadon sohibi ularni darrov kutubxonaga yetakladi. Darhaqiqat, maktab kutubxonalaridan qolishmaydigan bu maskan rang-barang kitoblarga boy edi.

– Bo'sh vaqtini kitob o'qish bilan o'tkazadigan, mutolaadan zavqlanadiganlar ko'p, – deya ohista gap boshladi ustoz kutubxona bilan tanishtirarkan. "Domla, falon yozuvchining kitobi kerak edi?", "Domla, bir tarixiy asar sizda bor, deb eshitdim, foydalanishga berib turolmaysizmi?" deya so'rovchilar ko'paydi. Qishloqdoshlarimning shu taxlit iltimoslari menda kutubxona ochish istagini paydo qildi. O'quvchilar, talabalar, tashkilot xodimlari... Ularga hali u kitob, hali bu gazeta kerak bo'lib qoladi...

Uzoq yillar davomida maktabda rus tili va adabiyotidan dars berish bilan birga o'quvchilarga badiiy adabiyotlar, yozuvchilarning mashhur asarlari haqida ham ma'lumotlar berib borardim. Darsliklarga kiritilgan asarlardan parchalarni tahlil qilish barobarida ulardagi ta'sirli joylaridan namunalarni o'zim o'qib berardim. Shu orqali o'quvchilarning kitoblarga bo'lgan qiziqishlari ortdi. Ular, albatta, asarning to'la matni bilan tanishishni xohlardilar. To'g'ri, tuman, viloyat markazlarida kutubxonalar muntazam ishlab turibdi, ammo olis qishloqdan markaziy kutubxonalariga borishga hammaning ham imkoni bo'lavermaydi. Biroq o'quvchilarning ayniqsa ta'til kunlari bo'sh vaqtlari davomida kitob o'qigisi keladi...

Darvoqe, kutubxona qator bo'limlardan iborat bo'lib, bolalar adabiyoti, jahon adabiyoti, chet el yozuvchilari asarlari, fantastik asarlar tartib bilan qatorlarga joylashtirilgan. Tarix, matematika, geografiya, tibbiyot singari sohalarga oid qo'shimcha adabiyotlar ham kutubxonadan o'rin olgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va yana ko'plab allomalar asarlariga alohida burchaklar tashkil qilingan.

– Kutubxonani bunyod etishda o'quvchilar, otanalar, talabalar, homiylarning ham o'ziga xos hissalari bor, – davom etadi ustoz. – Kimdir baholi qudrat qo'ldan kelgancha, kitoblar keltirib, kutubxona fondini boyitishga hissa qo'shdi. Hozir kutubxona ko'p sonli a'zolariga ega. Tumanimizdagi 10-, 11-, 12-, 13-, 14-maktablar o'quvchi, o'qituvchilari, shuningdek, OTM talabalari kutubxona xizmatidan foydalanishadi. Ayni damda kutubxonada to'rt mingdan ziyod turli xil adabiyotlar, gazeta-jurnallar o'rin olgan.

Suhbat orasida Anvarjon ustoz kutubxonaning nima uchun "Qobulov Mahmudjon kutubxonasi" deb nomlanishiga izoh berdi:

– Mahmudjon Qobulov – mening otam. Ikkinchi

jahon urushi qatnashchisi, olti yildan ortiq vaqt harbiy xizmatda bo'lgan. Urush yillari Dnepr daryosi kechuvida og'ir yaralangan. Artilleriyachi, razvedkada xizmat qilgan. Urushdan sog'omon qaytgach, qirq yil davomida jamoa xo'jaliklarida, qo'riq yerlarni o'zlashtirishda ma'sul vazifalarda ishlagan. Bolaligimizdan kitobga alohida mehr qo'yishimizda otamning hissasi katta bo'lgan. Nafaqat kitob, balki kundalik nashrlarda e'lon qilinayotgan ibratli maqolalarni bizga ham o'qib berar, biz esa vaqt topdik deguncha, mutolaaga berilardik. Har kuni davlat ishlaridan kechlatib, toliqib qaytgan otam bizdan bugun nimani o'qiganimizni so'rashdan charchamasdi. Respublikamizning faxriy pensionerlaridan biri bo'lgan, butun umrini xalq xizmatiga sarflagan, fidoyi, va eng muhimi, bizning bilimni, ziyoli qilib tarbiyalanishimizga e'tibor qaratgan otamning nomi bilan kutubxonani atagim keldi. Kutubxonada kichik muzey tashkil qilishimizning boisi ham shu!

Kutubxona – ziyo maskani, qutlug' joy. Jumladan, ushbu kutubxonaning ham o'ziga yarasha kitobxonlari ko'p. Qishloqdagina emas, tuman, viloyatda ham kutubxona daragini eshitganlar, undan foydalanuvchilar yetarli. Anvarjon ustozning bu xayrli ishidan ko'plar mamnun, kimdir ko'zi ojizlar uchun sakkiz tomdan iborat Brayl yozuvidagi kitoblarni kutubxonaga sovg'a qilibdi. Demak, endi kutubxonada ko'zi ojiz kitobxonlar uchun ham kitob o'qishga imkoniyat yaratildi.

Anvarjon ustoz yetmish olti yoshni qoraladi, biroq hamon yoshlardek g'ayratli, shijoatli. Kutubxonaga kelgan turli yoshdagi kitobxonlarga xizmat ko'rsatishdan charchamaydi. Yonida qizlari Gulnoraxon, Gulbahor doim yordamlashishadi, har kuni gavjum kutubxona ishlarini yo'lga qo'yishdek savobli ishda dadalariga baholi qudrat ko'maklashib turadilar.

– "Mabodo kitob do'konlarida yangi adabiyot sotilayotgan bo'lsa, dadam ularni darrov sotib oladi, kutubxona shu kuni yana bir nechta kitob bilan boyiydi, kimdir shu kitobni olib o'qisa, dadamning xursandligini qo'yavering, bundan ulug'roq savob ish bor ekanmi?", deydi dadam, – Katta qizi Gulnoraxon biz bilan suhbatda dadasining yoshlarni kitobxonlikka jalb etishdagi fidoyiligi haqida ikki og'iz fikr bildiradi.

Ustoz bilan suhbatimiz davomida kutubxonaga bir guruh o'quvchilar kirib kelishdi. Shu asnod ustoz ulardan birini bizga tanishtirdi:

– Kutubxonaning faol a'zosi – Muhammadkarim Habibullayev, 13-maktabning 5-sinf o'quvchisi, u ham menga havas qilib, uyida kichik kutubxona ochdi, dastlab otasi, onasini, opa-ukalarini, so'ngra teng-qurlari, sinfdoshlarini kutubxonasiga a'zo qilib, kitobxon qildi. Bundan behad quvondim. Aytishicha, bolalarga ulashadigan kattalarning hayitlik pullarini to'plab, kitob do'konlaridan bolalar yozuvchilarning asarlarini, turli xil xalq ertak kitoblarini sotib olishdan ish boshlagan. "Endi men ham ustozdek kutubxona tashkil qilib, o'rtoqlarimni kitobxon qilaman, o'zimiz kitob musobaqalarini o'tkazamiz", deydi u. Bu holat meni juda quvontirdi, unga men ham qo'limdan kelgancha kitoblar hadya qildim.

Umida EGAMBERDIYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
a'zosi

Inklyuziv ta'lim

Ma'lumki, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim muassasalari 2024-yildan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufiga o'tkazildi. Mana shu vaqt mobaynida tizimdagi o'zgarishlar, inklyuziv va maxsus ta'lim jarayonlarida o'quvchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va bu jarayonlar uchun bilimni va malakali pedagog-kadrlarni tayyorlash, xalqaro tajribalarni mamlakatimiz ta'lim muassasalarida tatbiq etish borasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ham Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamkorligida ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu borada vazirlikning Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i Ro'zibek TO'RAYEV bilan suhbashdik:

– Ma'lumki, oxirgi yillarda maxsus ta'lim tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Endilikda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda bolalar ta'limini tashkil etish bilan bog'liq ishlarda vazirlikning mas'ul-ligi, hamkorligi qay darajada bo'ladi?

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan 2024-yil 1-avgustdan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga o'tkazilgan edi.

Mazkur farmonga ko'ra vazirlikka alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni darsliklar, o'quv va didaktik materiallar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun o'quv rejalarini va dasturlarini ishlab chiqish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tomonidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan samarali hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, vazirlikning 2024-yil 13-avgustdagi "2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishiga tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 256-buyrug'i qabul qilindi va Ijtimoiy himoya milliy agentligiga taqdim etildi. Mazkur buyruq asosida maxsus maktab va maktab-internatlarda 2024-2025-o'quv yili ta'lim jarayonlari tashkil etildi.

– Inklyuziv ta'lim doirasida maxsus maktab o'quvchilaridan ayrimlari umumta'lim maktablariga o'tkaziladi. Respublika bo'yicha aynan nechta o'quvchi umumta'lim maktablariga o'tkazildi va bunda o'quvchilar tibbiy ko'rikdan o'tkaziladimi? Qanday mezonlarga ko'ra bolalar inklyuziv ta'lim jarayoniga tanlab olinadi?

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ni 2024-yil 25-yanvardagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-ilovasida "Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi-

Inklyuziv va maxsus ta'lim: tizimda qanday o'zgarishlar bo'lmoqda?

ni berish uchun asos bo'ladigan tibbiy ko'rsatmalar" ro'yxati tasdiqlangan. Mazkur ro'yxat asosida o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish va chiqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Inklyuziv ta'limning kengayishi va psixologik-pedagogik tashxislash tizimida shaffoflik ta'minlanishi natijasida 2 yil davomida alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktablardagi o'quvchilar sonini 1,1 ming nafarga (7 %)ga kamaytirishga erishildi deb ma'lumot berdi Ijtimoiy himoya milliy agentligi.

Inklyuziv ta'lim tizimi barcha o'quvchilarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarga ham teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi. Bu ta'limda o'quvchilar individual yordam va qo'llab-quvvatlash bilan o'qishadi, sinf muhitini esa barcha o'quvchilar uchun moslashtirishga e'tibor qaratiladi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarni birlashtirish va o'zaro o'qitishni ta'minlashni maqsad qiladi, teng imkoniyatlar yaratadi, bu esa nogironligi bo'lgan bolalarga ham jamiyatda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Ushbu tizimda o'quvchilar turli xil bolalar bilan muloqot, munosabatda bo'lishadi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar bir-birlarini hurmat qilishni o'rganadilar, shu orqali ularning xulq-atvori yaxshilanadi. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilar ham turli pedagogik metodlar va individual yondashuvlarni o'rganishadi, malakasi oshib boradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan yordamlar taqdim etiladi, bu har bir bolaning o'z salohiyatini oshirishiga imkon yaratadi. Umuman olganda, inklyuziv ta'lim tizimi barcha o'quvchilar uchun qulay muhit yaratadi va ularning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

– **Umumta'lim maktablarining inklyuziv ta'lim uchun sharoiti yetarli mi? O'quvchilarni darsliklar, zaruriy jihozlar va pedagoglarni o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash masalasi qay darajada?**

– 2023-2024-o'quv yili **419 ta** maktabda inklyuziv ta'lim joriy etilgan bo'lsa, ularga **798 nafar** o'quvchi qabul qilingan. Bugungi kunda **952 ta** maktabda inklyuziv ta'lim joriy etilgan. Tashkil etilgan **1 511 ta** sinflarga **2 201 nafar** nogironligi bo'lgan bolalar jalb etildi.

Vazirlik tomonidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan hamkorlikda inklyuziv ta'lim maktablarini "To'siqsiz muhit" talablariga moslashtirish bo'yicha minimal talablar ishlab chiqildi va vazirlikning 2025-yil 17-yanvardagi xati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklariga yuborildi. 2025-yil davomida har bir tuman(shahar)da bittadan umumiy o'rta ta'lim maktabi "to'siqsiz muhit" talablariga moslashtiriladi.

Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim sharoitini yaxshilashga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi 290-son qaroriga ko'ra tasdiqlangan "2022–2026-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetini transformatsiya qilish kompleks rivojlantirish Dasturi"ning 26-bandida

da alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan talabalarining ijtimoiy moslashuvi uchun sharoit yaratish va inklyuziv ta'lim g'oyalarini targ'ib qilish bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash yuzasidan universitetda tahsil olayotgan nogironligi bo'lgan talabalarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va sifatli ta'lim berish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda universitetda tahsil olayotgan nogironligi bo'lgan talabalar **262 nafar**. Nogironligi bo'lgan(ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi) talabalarining ijtimoiy toifasidan kelib chiqib, o'quv rejalaridagi mutaxassislik fanlaridan o'tiladigan ma'ruza matnlarining(ovozli) audiomateriallari yaratilib, universitet ARMga joylashtirilgan. Shuningdek, tayanch harakati-da nuqsoni bor talabalarining fanlardan joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini ularning talablariga binoan moslashuvchan grafiklar asosida topshirishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti tomonidan respublikamizda birinchi bo'lib 2022-2023-o'quv yilidan boshlab asosiy kadr iste'molchilarning talab va takliflari asosida pedagogika ta'lim sohasining barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalariga "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fani kiritildi. Hozirgi vaqtda respublikamizdagi pedagog-kadrlar tayyorlaydigan 14 ta oliy ta'lim muassasalarida "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fani o'qitilib kelinmoqda. "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fani o'quv rejalariga jami 120 soatlik o'quv yuklama(90 soat ma'ruza, 14 soat amaliy mashg'ulot, 16 soat seminar mashg'uloti) ajratilgan.

Fanning o'quv rejasi va dasturlarini tayyorlashga mahalliy hamda xorijiy mutaxassislar jalb etilgan. UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi ta'lim bo'limi mutaxassisi Y.Chicherina, "Учим-знаем" loyihasi asoschisi, professor V.Sharikov, "Maxsus pedagogikaning klinik asoslari" kafedrasining mudiri S.Safarova, prof.v.b. D.Inogor, "Logopediya kafedrasini" dotsenti, PhD Sh.To'xtiyarova muallifligida xorij va mahalliy tajribalar asosida "Inklyuziv ta'lim" nomli darslik nashr etildi. Pedagoglar tayyorlaydigan 14 ta oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim fanini o'qitishda bu darslikdan foydalanish tavsiya etildi. Nizomiy nomidagi O'zMPU va MDGU(Институт Детство) bilan hamkorlikda "Gospital pedagogika"(Госпитальная педагогика) moduli bo'yicha fanning o'quv dasturi xorijiy adabiyotlar asosida qayta ishlandi va mukammallashtirildi. "Gospital pedagogika" modulini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun hamda tajriba almashish maqsadida "Учим-знаем" loyihasi doirasida MDGUning psixologlari, pedagoglari va boshqa mutaxassislarini taklif etish, "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fani bo'yicha o'quv adabiyotlar yaratish rejaga kiritgan.

Shuningdek, ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarning savodxonligini oshirish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 20-oktabrdagi qaroriga muvofiq surdopedagogika kafedrasini o'qituvchilari tomonidan "O'zbek imo-ishora tilining lingvistik lug'ati" hamda "Imo-ishora nutqi segmentatsiyasi" o'quv-uslubiy qo'llanmalari yaratildi. Universitetda tahsil olayotgan eshitishida muammolari bo'lgan talabalarga surdopedagogika yo'nalishi talabalari ko'ngilli tarzda surdotarjimonlik qilib kelishmoqda.

– **Maxsus va inklyuziv ta'lim sohasida mutaxassis kadrlar masalasi qay darajada? Bu borada qanday ishlar olib borilyapti?**

– Pedagoglarga inklyuziv ta'lim jarayonida qanday ishlashni o'rgatish maqsadida kurslar, o'quv-seminarlar tashkil qilinayapti. Jumladan, inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim maktablarining **3 017 nafar** boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda psixologlari, shuningdek, inklyuziv ta'lim guruhlarini faoliyati yo'lga qo'yilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining **1 585 nafar** direktor, metodist, psixolog, logoped, tarbiyachi va tarbiyachi yordamchilari 72 soatlik o'quv kurslarida o'qitildi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan 2023-2024-o'quv yili uchun tasdiqlangan "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv sharoitda ta'lim olayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi-qizlarning pedagog xodimlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan turli ko'rinishdagi kamsitilishlarining oldini olish bo'yicha" reja asosida **12 ta** onlayn seminar o'tkazildi.

2024-2025-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida hamda umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari, metodistlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, tarbiyachilari, tarbiyachi yordamchilari, logopedlari va psixologlari uchun o'tkazilgan 72 soatlik maqsadli malaka oshirish kursi davomida 4 500 nafar ishtirokchilarning 4 000 nafariga kursni yakunlaganligi to'g'risida sertifikatlar topshirildi.

Vazirlik hamda Respublika tashxis markazi tomonidan "ISHONCH 2030" loyihasi doirasida ham seminar-treninglar o'tkazildi. Bundan tashqari, joriy yilning may oyida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb etilgan mutaxassis va pedagoglar uchun "Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish: muammo va yechimlar" mavzusida o'quv-seminar tashkil etildi. Mazkur o'quv-seminarda respublikaning barcha hududlaridan 100 nafarga yaqin inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ishtirok etishdi.

– **Ota-onalar va umuman jamiyatimizning inklyuziv ta'lim jarayonlariga nisbatan munosabatlari o'zgarmiqdami? Aytaylik, bu tizim mohiyatini tushunmayotganlar nogironligi bor bola faqat maxsus maktabda o'qishi kerak, faqat o'zi kabi bolalar bilan u o'zini yaxshi his qiladi, aks holda umumta'lim maktablarida kamsitilish, ajratib qo'yilishlar yoki boshqa turdagi qiyinchiliklarga duch keladi, deb hisoblashadi.**

– Umumta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim haqida, ota-onalar esa nogironligi bor farzandlarini umumta'lim tashkilotlarida o'qitishi mumkinligi xususida pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarining bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlari muntazam ravishda olib boriladi. Shu bois jamiyatning bu boradagi qarashlari ancha ijobiy tomonga o'zgarmiqda. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarining ta'lim muhitiga moslashishlari" mavzusida 5 ta rolik, "Inklyuziv ta'limda ota-onalar uchun tavsiyalar" mavzusida 3 ta rolik hamda "Inklyuziv ta'limning maxsus ta'limdan afzalliklari", "Zo'ravonlik va zo'ravonlikka uchragan o'quvchilar bilan qanday ishlar olib borish" kabi mavzularda videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan. Bu kontentlar ommaning e'tiborini jalb qilmoqda va jamiyatning inklyuziv ta'lim borasidagi qarashlari ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Shodiyona XUSHMURODOVA
suhbatlashdi.

Mulohaza

Oila tayanchi – muhabbat

Bir necha yillik professorlik faoliyatim va tajribamdan kelib chiqib ko'plab toliblarga turli mavzularda tahliliy ma'ruzalar o'qib kelmoqdaman. Shulardan o'zimni ham chuqur o'yg'a soladigan masala – bu gender tengligi siyosati soyasida qolib ketayotgan sof muhabbat, qadr-qimmat tushunchalari va bir necha asrlik qadriyatlar.



shuni ko'rsatyaptiki, ikki yosh qisqa muddatda bir-biri bilan muloqotda bo'lib, tezlikda muhabbat va sevgi izhor qilishga o'rganib qolishgan. Qisqa muddatda muhabbat izhor qilib, so'ngra dabdaba bilan turmush qilib, oradan hech qancha vaqt o'tmay ajrashayotganlarga ham guvoh bo'lyapmiz.

Gender tengligi masalasi qancha davrlarki dolzarbligini yo'qotmaydi. Tarixga nazar tashlansa, 1917-yildagi Rossiya inqilobining yo'lboshchisi va ko'p yillar dohiy nomini olgan Vladimir Lenin ayollarning erkaklar bilan tengligini ta'minlash, ayollarni jamoat ishlariga ko'proq jalb etish va ularning mehnatidan davlat manfaati yo'lida foydalanish kerak, degan fikrni ilgari surgan. Bungacha asosan erkaklar mehnat qilib oila a'zolarini boqqan bo'lsa, shundan keyin ushbu majburiyat ayollar yelkasiga ham yuklatila boshlangan. Hatto ayollar farzand ko'rganidan so'ng oradan 3 oy o'tar-o'tmas ish joyiga chiqishi kerak degan bosimlar sabab bolalarini to'liq ona suti bilan emizib katta qilmasdi. Uning o'rniga sekin-asta sun'iy sutlar ishlab chiqarilib, chaqaloqlarni shu orqali boqish jarayoni boshlangan edi. Tibbiyot va tarixdan ma'lumki, bola ona sutini to'liq, to'yib iste'mol qilmasa, chaqaloqqa ona berishi kerak bo'lgan his-tuyg'ular, xarakteri to'liq o'tmas ekan. Ushbu hayot tajribasi 1924-yilda tashkil topgan SSSR deb nomlangan mamlakat tarkibidagi 15 ta respublikada istiqomat qiluvchi oilalarga yarim asr davomida majburiy bo'lib qoldi. Shu tariqa SSSRning shimoliy va janubiy qismida, ayniqsa, Markaziy Osiyo respublikalarida yashovchi xalqlarning tarixiy urf-odatlarini aralash-quralash bo'lib ketdi.

Ammo gender tengligi xavfi ostidagi asosiy muammolardan biri sevgi hisoblanadi. Tarixdan adabiyotlarda ham, kinofilmlarda ham sevgi hayotning asosiy mezonlaridan bo'lgani ma'lum. Xususan, Yevropaning juda ko'p badiiy asarlarida sevgi yoshlar hayotidagi asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi. Aslida ham insonning qanday kitob o'qishiga qarab qisman uning dunyoqarashini aniqlash mumkin. Misol uchun, Emil Zolya, Onore de Balzak, Mopassan, Lev Tolstoy, Pushkin, Lermontov, Yesenin va shu kabilarning ijod namunalari asosiy mezon bu – sevgi.

Turon o'lkasidagi buyuk mutafakkir, yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida sevgi, muhabbat nima ekanligini izohlashga harakat qilib kelishgan. Hozirgi hayot

Ulug' mutafakkirimiz Forobiy 72 tilni bilgani holda qator asarlar yaratgan va ushbu asarlarning xamirturushida "xulq-atvor, fe'l-atvor" degan so'zlar juda katta hayotiy mazmunga ega ekanini tushuntirib bergan. Lekin yoshlar bunday iboralarni yuzaki o'qib, eshitib

hayotda ko'p qoqilmoqda. Xulq-atvor insonning qaysi sharoitda tug'ilgan, yashagan, qanday adabiyotni o'qigan va qanday insonlar bilan hayotning turli jabhalarida muloqotda bo'lganligini aks ettiradi.

Fe'l-atvor esa insonning butun avlodidan davom etib kelayotgan irsiyatiga bevosita bog'liq. Tasavvur qiling, katta asfaltlangan ko'chalarning u yer-bu yerida 50–60 gradus harorat issiqligiga qaramay kichkina o'simliklar chiqib qolganining guvohi bo'lamiz. Bundan ma'lum bo'ladiki, ushbu o'simlikning irsiyati kuchli bo'lib, har qanday qiyinchilik bo'lsa-da, yashab ketishga o'rganagan. Xuddi shuningdek, bir millatning farzandi boshqa millat farzandi bilan turmush qursa, ma'lum vaqtdan so'ng ularning irsiyatidagi nomutanosibliklar g'alaba qozonib, bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. Masalan, Sharqda tug'ilib-o'sgan yigit Yevropa yoki boshqa yot millatga mansub qizga uylansa, taxminan 40 yoshlargacha zamonaviy sharoitda – ya'ni restoranda ovqatlanib, raqs maydonida raqsga tushib, ko'proq vaqtini o'yin-kulgu bilan o'tkazishi mumkin. Ammo yoshi ellikdan oshgandan so'ng sharqona munosabat, hazin

ruh, ozodalik, shirin taom bilan kutib olish va eriga astoydil xizmat qilish sifatlarini jamlagan ayolni istab qoladi. Bu bevosita uning irsiyati, ota-bobosi yashab o'tgan turmush tarziga borib taqaladi.

Ammo hech bir davlatdagi qonunlar oila munosabatlarida irsiyatni hisobga olmaydi. Bu ham ma'lum ma'no-da oilalarda tushunmovchilik va darz ketish holatlariga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, bu eri bilan bir xil mehnat sharoitida ishlayotgan ayolning eridan mehribonlik, shirin so'z, g'amxo'rlik, ko'mak, o'rni kelganda mazali ovqat va turli madaniy hordiq chiqarish sharoitlarini yaratib berishini kutishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan erkaklar ham buni hisobga olgan holda hech bo'lmaganda eng mayda ishlarda ayoliga ko'maklashishi, oddiy choy ichgisi kelib qolsa o'zi qaynatib, o'zi choy damlab olishi kerak. Misol uchun, katta lavozimda ishlaydigan bir insonning aytib berishicha, asablari charchab uyga kelganda oshxonadagi hamma idish-tovoqlarni yig'ib, yuvib-tozalab qo'yish orqali dam olar ekan. Bu paytda uning ayoli uy tozalash, kir yuvish, dazmollash va shu kabi ishlar bilan shug'ullanadi. Qarabsizki, oilada tabiiy tenglik, xotirjamlik va bir-biriga bo'lgan mehr kuchayib boraveradi.

Aslini olganda, oiladagi ayollarining erkaklar bilan tengligi baxt mezon bo'lib xizmat qilishiga ham juda ko'p misollar bor. Masalan, mutafakkir Oybekning hayotini ko'pchilik oilalarga namuna bo'la oladi deb aytish mumkin. Oybek insult bo'lib, gapirish va harakatlanish qobiliyatini yo'qotganida ham yozilayotgan asarlarini davom ettirish fikridan qaytmaydi. Shunday vaziyatda katta olim, fan doktori bo'lgan Zarifa Saidnosirova har kuni ishga ketishdan oldin Oybekning ovqatlarini tayyorlab, ishdan kelishi bilan uni ovqatlantirib, so'ngra tugallanmagan asarlarni qog'ozga tushirishga ham ulgurgan. Oybek gapira olmasa-da, Zarifa opa uning lab harakatiga qarab so'zlarni anglab, asarlarni yozib tugatgan. Mana buni mehr va eriga bo'lgan hurmat desa bo'ladi. Yana bir kuchli adib Abdulla Qahhor ham "Urush va tinchlik" asarini tarjima qilayotganda kitob oxiriga yetmay hayotdan ko'z yumgan. Shunda uning rafiqasi kitobning qolgan qismini tarjima qilib, nashrga tayyorlab bergan ekan. Taniqli yozuvchi Said Ahmad sho'ro hukumatining zulmi bilan qatag'on bo'lib qamalganida rafiqasi Said Zunnunova Said Ahmadga ruhiy dalda berib turgan. Bunday misollar juda ko'p. Ikkinchi jahon urushi vaqtida ham minglab yigitlar rafiqalarini qoldirib frontga ketgan. Ularning ko'pidan qora xat kelgan, biroq beva qolgan ayollar bitta farzandi bo'lsa ham boshqa turmush qurmay turmush o'rtog'ining xotirasi bilan yashaganlar.

Hayotga jiddiy, tarixiy saboq bilan qaralmasa, turli xil davr vasvasalariga tushib qolish hech gap emas. Ayrim yoshlar kechagi kunni bugungi kun bilan, bugungi kunni ertangi kelajak bilan solishtirishni unutib qo'yadilar. Har doim kerakli xulosalarni olib yashash bizning oilada ham, jamiyatda ham munosib o'rin egallashimizda muhimdir.

Taklif

Ota-ona orzusi nima bo'ladi?..

Bir baxtli oilaning qizi maktabda she'riyatga qiziqardi, sinfdoshlari o'rtasida o'z o'rni bor edi. Ozrulari yuksak edi: maktabni tugatgach, o'qishga kiranman, ota-onamning yuzini yorug' qilaman. Kunlar ketidan kunlar o'tdi, qiz kursga borib o'qidi, izlandi. Maktabni tugatgach, o'qishga topshirdi. Qarangki, o'qishga kirolmadi-yu, uni turmushga berish masalasida oilasida janjallar boshlandi. Bu orada qiz bechora nimalarni boshidan o'tkazmadi?! Ammo ona orzusi kuchlilik qildi. O'zining yaqin qarindoshidan kelgan so'vchilarga rozilik berdi. Qiz kuyund, o'kindi, foydasi bo'lmadi...

Turmush qurgandan so'ng qanchalar qiynalgani yolg'iz uning o'ziga ayon. Biroq o'qishga bo'lgan qiziqishlari so'nmadi. Bir yil o'tib farzandli bo'ldi, judayam qiynaldi; lekin umidini uzmay o'qishga topshirdi. Nihoyat, niyati amalga oshdi. Ammo ikki to'siq bor: biri – farzandi, ikkinchisi – oilasi. U bu ikki to'siqni ham yengdi – qizini onasiga topshirdi, oilasi bilan esa xayrlashdi, ya'ni ajrashdi. Ikki oilada ancha vaqtgacha kelishmovchiliklar bo'ldi. Qiz bolasini onasiga topshirib, o'qishga ketdi...

Bunday oilalar, afsuski, son-sanoqsiz topiladi...

Aksariyat yoshlarning oila tushunchasini to'g'ri anglay olmasligi ko'p holatlarda ota-ona tomonidan erta turmushga berish oqibatida yuzaga kelmoqda. Inson voyaga yetib, oila muqaddasligini anglab yetganidan so'ng oila qursa-chi? Yo'q, aslo bunday bo'lmaydi (ota-ona orzusi nima bo'ladi?). Axir ota-onalar hayotligida farzandi to'yini ko'rib, nevaralarini bag'riga bosib katta qilgisi keladi. Erta turmush qurgan yigit-qizga turmush tashvishlari qiyinlik qilib, oxir-oqibat "Ajrashish – eng oson yo'l ekan" degan fikrga kelganida bir oila buzilib ketadi.

Mana shunday holatlarning oldini olish uchun maktabdanoq amaliy harakatlarni izchil olib borish lozim. Jumladan, maktab dasturiga falsafa, psixologiya, yosh o'g'il-qizlarni hayotga tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosidagi fanlarni kiritish lozim. O'smirlikdan balog'at yoshiga o'tish davridagi muayyan o'zgarishlarni boshqarish, maktab paytidan boshlab to'g'ri yo'naltiruvchi aniq yo'nalishlarni ham mana shu fanlar belgilab beradi. Aksariyat yoshlar bu davrda muammolarini ota-onasiga ayto olmaydi, ota-onalar esa o'z ishlari bilan o'vora bo'lib farzandlaridagi bu o'zgarishlardan befarq qolib ketaveradilar. Shu bois, bu fanlarni dasturga kiritish maqsadga muvofiq.

Sharifjon XOLBO'TAYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati
boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Ne'matilla MO'MINOV,
texnika fanlari doktori,
professor

Andijon viloyati hokimligi diqqatiga!

ANDIJONGA GROSSMEYSTER KERAK EMASMI?

O'zbekistonda sportning turli yo'nalishlarida porlayotgan yosh iste'dodlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Ulardan biri izboskanlik Abdumajid Botiraliyevdir.

Sport tanaffuslarni yoqtirmaydi, u sportchidan doimiy faollik, o'z ustida tinimsiz ishlash va musobaqalarda muntazam ishtirok etishni talab qiladi. Har bir medal, har bir yutuq ortida esa ota-onalarning farzandiga o'z vaqtida bergan e'tibori, murabbiylar mashaqqati, va albatta, mutasaddilarning mablag' masalasida qo'llab-quvvatlovi turadi. Sportchi qanchalik kuchli bo'lmasin, uning muvaffaqiyatlarida bu omillarning hech birini inkor etib bo'lmaydi. Shaxmat bo'yicha yurtimiz sharafiga xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilayotgan Abdumajid Botiraliyevning onasi Mahmudaxon Ismoilovning quyidagi murojaati bunga yaqqol misoldir:

– Boladagi iste'dod, qobiliyatning yuzaga chiqishi avvalo ota-ona, ustozlar tomonidan erta va to'g'ri aniqlanishiga bog'liq bo'lsa, o'z vaqtida munosib qo'llab-quvvatlash uning kelgusidagi muvaffaqiyatlari, orzusi tomon dadil harakatini ta'minlaydi. O'g'lim uchun men ham hamma onalar kabi qo'limdan kelgani ni ayamayman. Biroq bu borada juda ko'p to'siqlarga duch kelyapmiz...

Abdumajid 2022-yil 26-iyunda Maldivning Ukulxas orolida bo'lib o'tgan G'arbiy Osiyo chempionatidan 3 karra chempion bo'lib qaytdi. (Shu yili) 4-iyul kuni Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov Abdumajidni tabriklab, 5000 dollar berdi. Bu pulni o'g'limning turnirlarga borishiga sarfladim. Abu-Dabida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ozarboyjonda 16 yoshgacha o'smirlar olimpiadasida qatnashdi, Ispaniyadagi turnirda 1-o'rinni egallab, reyting ballarini ancha ko'tarib oldi (1657(+400)). Natijada jahonda o'z yosh toifasida 15 talikka kirdi. Bu juda katta natija! Ushbu xushxabarni viloyat hokimiga yetkazish maqsadida bordik, lekin uchrasha olmadik...

2024-yil 25-noyabr kuni Shuhratbek Abdurahmonov bilan uchrashib, 2025-yilgi rejalar va muammolar bo'yicha suhbatlashdik. Yillik kalendar reja tuzishimizni,

Abdumajidga ishonch bildirib qo'llab-quvvatlashini aytdi. Bu vazifani viloyat hokimligi kotibiyat mudiri Elyorbek Xolmirzayevga topshirdi. 2024-yil 3-dekabr kuni Elyorbek bilan viloyat hokimi fuqarolar qabulxonasida ko'rishib suhbatlashdik. U Abdumajidning qiziqishlarini o'rganib chiqqani va viloyat hokimi topshiriq bergani, buyog'iga o'g'limning o'quv yig'inlari va xalqaro musobaqalarga borishiga bosh-qosh bo'lishi, yanvar oyidan murabbiylar bilan ishlashni boshlashimizni aytdi.

2025-yil 4-yanvardan GM Abdumalik Abdusalimov va IM Muhammadali Abdurahmonov bilan darslarni boshladik. Bu haqda Elyorbek Xolmirzayevni xabardor qildim. 21-yanvar kuni fevral oyida Abdumajid Vengriyada bo'lib o'tadigan xalqaro musobaqaga borishini rejalashtirdik, lekin Shengen viza olishga ulgurmadik. Chernogoriyada bo'lib o'tadigan 20 yoshgacha o'smirlar o'rtasida jahon chempionatiga yuborish maslahatini qildik. 31-yanvar kuni viloyat hokimi fuqarolar qabulxonasida Andijon viloyati sport boshqarmasi boshlig'i O'tkirbek Toshpo'latov, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi Andijon viloyati bo'limi ijrochi direktori Mavjudaxon Karimova, Yoshlar ishlari agentligi Andijon viloyati boshqarmasi boshlig'i Akmaljon Tangirqulov, Elyorbek Xolmirzayevlar ishtirokida 1 yillik emas, choraklik (3 oy) qayta smeta tuzildi. 5-fevral kuni Chernogoriyadan inoys kelgani, to'lov qilishimiz kerakligini ma'lum qildim. 7-fevral kuni Elyorbek Xolmirzayev Akmaljon Tangirqulov bilan Yoshlar ishlari agentligi hisobidan moliyalashtirish rejalashtirilganini ma'lum qildi. Akmaljon bilan buxgalteriyaga bordik, Baxtiyor ismli buxgalter xalq deputatlari viloyat kengashi ko'rib chiqishi kerakligi, Elyorbek Xolmirzayev esa buni bir hafta kutishimizni aytdi. 23-fevralda Abdumajidning Chernogoriyaga uchish biletni qarzga olganimni qayta eslatdim.

21-fevralda Elyorbek Xolmirzayev "Biron kimdan qarz olib turing, tushganda beraverasiz" dedi. 22-fevral kuni soat 9:00 da hokimiyatga borishim, Izboskan tumanidan 2000 dollar pul qarzga olib berishi va pul tushgandan keyin qaytarishimni aytdi. 22-fevralda viloyat hokimligiga bordim, ular telefon raqam berishdi. Qo'ng'iroq qilib Izboskan tuman hokimligiga bor-



dim, shu tumandagi 8-maktabga borishimni aytishdi. O'sha yerda soat 13:23 dan 16:00 gacha kutdim, hech qanday ijobiy javob ololmadim.

23-fevral kuni Abdumajid Chernogoriyaga ucholmay, musobaqadan qolib ketdi, biletki kuydik. 25-fevralda Shuhratbek Abdurahmonovga o'g'lim Jahon chempionatiga borolmay qolgani haqida ma'lum qildim. U Elyorbek Xolmirzayevga qo'ng'iroq qildi. Kotibiyat mudiri bu musobaqagacha ulgurmagani, boshqa musobaqalarga ulgurishini aytib va'da berdi va moliya boshqarmasi boshlig'i kelishini kutishimizni aytdi. 20–30 minut o'tgach u bilan gaplashgani, aprel, may, iyun uchun ham smeta tuzib berishimizni so'radi. Lekin yanvar, fevral, mart oylariga smeta qilingani hali ijobiy hal bo'lmagani, buni keyingi 3 oylik deb viloyat hokimiga kiritishini aytdi. Mana, yil boshidan beri faqat smeta so'raydi, ammo 6 oydirki, puldan darak yo'q...

O'zbekiston shaxmat federatsiyasining Elyorbek Xolmirzayevga yuklatilgan vazifa ijrosi yuzasidan Shuhrat Abdurahmonovga rasmiy murojaati ham javob-siz qolgan.



Abdumajid BOTIRALIYEV

2012-yili Andijon viloyati Izboskan tumanida tug'ilgan. Izboskan tumanidagi 5-maktabning 7-sinf o'quvchisi. FIDE sport ustaligiga nomzod (2024).

Reytingi – 2018(standart), 2031(rapid), 1923(blits).

2018-yildan shaxmat bilan shug'ullana boshlagan.

Birinchi murabbiyi – Nargiza Akbarova. Murabbiylari – Bobur Sattorov, Akmal Fayzullayev, Abdumalik Abdusalimov.

Muvaffaqiyatlari:

O'z yosh toifasida 5 karra O'zbekiston chempioni.

Bo'stonliq tumanida o'tkazilgan maktab o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston chempionatida 3-o'rin (7 yoshgacha, 2019).

Toshkent shahrida o'tkazilgan "Toshkent kuzi" turnirida (B guruhi) 1-o'rin (2021).

Batumida o'tkazilgan bolalar va o'smirlar o'rtasida Jahon chempionati ishtirokchisi(10 yoshgacha, 2022).

Maldivda bo'lib o'tgan G'arbiy Osiyo chempionatida

10 yoshgacha bolalar o'rtasida 3 ta oltin medal sohibi (2022).

Abu-Dabi International Chess festivalida (Juniors guruhi) 4-o'rin (2022).

Abu-Dabi International Chess festival (B guruhi) 1-o'rin (10 yoshgacha, 2022).

Toshkent shahrida o'tkazilgan Zakovat Gambit turnirida (E guruhi) 2-o'rin (2022).

Naxichevan(Ozarboyjon)da bo'lib o'tgan 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasida Jahon shaxmat olimpiadasida ishtirokchisi (2022).

Ispaniya X CHESSABLE SUNWAY xalqaro turnirida (B guruhi) 1-o'rin (2022).

Sharm al-Shayx (Misr)da bo'lib o'tgan Jahon chempionati ishtirokchisi (12 yoshgacha, 2023).

Albaniyada o'tkazilgan bolalar va o'smirlar o'rtasida Jahon chempionati ishtirokchisi (12 yoshgacha, 2024).

Gruziyada o'tkazilgan XXVI Poti International Chess festivalida blits yo'nalishida 1-o'rin (2024).

Andijonda bo'lib o'tgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida 2-o'rin (13 yoshgacha, 2025).

Azaldan Andijon – iste'dodlarga boy maskan. San'at, adabiyot, ilm-fan, sport sohasida ko'plab andijonliklar mamlakatimizda, xalqaro miqyosda dovrug' qozongan. Lekin shaxmatda emas...

Shaxmatchilarimiz so'nggi yillarda erishgan muvaffaqiyatlari bilan O'zbekiston yetakchi shaxmat mamlakatiga aylanishiga, FIDE tasnifidagi musobaqalarda shaxmatchilarimizga alohida e'tibor bilan qarashlariga, hatto cho'chishlariga sababchi bo'lishmoqda. Grossmeyster (GM), xalqaro master (IM)larimiz safi yildan yilga kengayib bormoqda. Lekin shu kunga dovr Andijondan biron ta ham xalqaro grossmeyster yetishib chiqmadi, xalqaro master ham.

Bunga sabab nima deb o'ylaysiz?..

Husan KARVONLI

Islahot va samara

YANGI O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TA‘MINLASHDA KONSTITUTSIYANING O‘RNI



Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tuzumining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida so'z ketar ekan, uning asosida, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida shunday deyiladi: *“Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.*

Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi” (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. “O'zbekiston”, 2023, 75-modda).

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Ayni paytda biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeyiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi

tahrirdagi Konstitutsiyasida bu masalalar o'z yechimini topgan va u rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

– dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;

– diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

– diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

– ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish

ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;

– dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmastligini e'tirof etish (O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021-yildagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuni, O'RQ-699-son. <https://lex.uz/docs/5491534>).

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ijtimoiy, ilm-fan va madaniyat sohalari samarali mehnat qilib, diyorimizning gullab-yashnashi va uning mustaqilligini mustahkamlash, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

“Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, – ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi” (Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. – 58-b.).

O'zbekistondagi turli millatlarning teng huquqliligi ular o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarining oldini olishga imkon beradi. Bu esa millatlar hamjihatligiga nifoq solmoqchi bo'lgan kuchlarning o'z maqsadlariga erishishiga to'siq bo'ladi. Respublikada Toshkent viloyati ham ko'p millatli hudud hisoblanadi. Aholi milliy tarkibi bo'yicha o'zbeklar 70 foiz, qozoqlar 12 foiz, tojiklar 5,5 foiz, ruslar 4,6 foiz va boshqa millat vakillari 7,9 foizni tashkil etadi. Shundan Yuqori Chirchiq tumani-da 66 ming 368, Bo'stonliq tumani-da 42 ming 804, Chinoz tumani-da 26 ming 884 nafar qozoq, Angren shahrida 33 ming 345, Bo'stonliq tumani-da 28 ming 507, Chirchiq shahrida 17 ming 668 nafar tojik, Olmaliq shahrida esa 27 ming 329 nafar rus millatiga mansub fuqarolar tinch-totuv yashab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Ko'p millatli xalqimizning mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyliklaridan biri – “O'zbekiston – umumiy uyimiz” degan shior ostida mamlakatimizda millatlararo do'stlik va ahillikni saqlay olganimiz hisoblanadi, desak adashmagan bo'lamiz”* degan fikrlari qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarimiz zahirida jamiyatimizdagi osoyishtalik va totuvlik hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilayotganiga alohida urg'u beradi.

Sherzod QARSHIYEV,
CHDPU

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”
kafedrası dotsenti v.b.

Ehtirom

Kasbim – mening g'alabam!



Jamoamizda maqtovg'a loyiq o'qituvchilar ko'p. Barchasi o'z ishining fidoyisi, bilimli ustozlar. Har biri ta'lim sohasi va yosh avlodni tarbiyalash yo'lida umrini bag'ishlashga hozirlik ko'rayotgan bo'lajak pedagoglar uchun o'zida bor ilm-u ziyoni ulashayotgan bag'rikeng insonlardir. Shulardan biri, ajoyib inson, Xalq ta'limi a'lochisi Nafisa Rahmonovani har qancha e'tirof etsak arziydi.

Nafisa opa oqila ayol, suyukli yor, mehribon ona va qaynona, dono murabbiy sifatida ko'plarga o'rnak bo'lib kelmoqda. Ustoz bilan suhbatlashganingizning o'zidayoq u kishining yuqori salohiyatli va yuksak ma'naviyatli inson ekanini anglaysiz. Qaysi sohadan savol bermang, qanday masalada murojaat etmang, so'zsiz barcha savolingizga javob berishga, yordam berishga oshiqadigan pedagog qiyofasida “Haqiqiy ustoz qanday bo'lishi kerak?” degan savolingizga ham javob olgandek bo'lasiz.

Nafisa Rahmonova yosh o'qituvchilar uchun bir nechta uslubiy qo'llanma yaratgan. Dars o'tishning samarali usullari haqida muntazam seminar o'tkazib turadi. U nafaqat tajribali o'qituvchi va ustoz, balki shoira va tarjimon hamdir. O'z hissiyotlarini she'rlariga sochadi. Turk tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan turk tiliga badiiy asarlarni tarjima qiladi.

Nafisa opaning g'ayrati, fidokorona mehnati ko'plar-

ning hayotga qarashlarini, yashash va intilish, shijoatini oshiradi. Xastaliklar ustozning irodasini ko'p bor sinadi. Qo'l-oyoqlaridagi kuchli og'riqlar u kishini kamharakat qilib qo'yganda ham, o'qituvchilik kasbini davom ettirdi. “Mening auditoriyaga kirib, doskaga o'z qo'lim bilan yangi mavzuni yoza olganim tuzalmas kasallik ustidan qozongan kichik g'alabamdir” deb kulib qo'yanlarida ustozda qanchalik kuch va g'ayrat, kasbiga mehr va sodiqlik, mas'uliyat mujassamligini ko'ramiz.

Ustozning umr yo'ldoshi va farzandlari: “Bo'ldi, endi dam oling, bizga sog'ligingiz kerak, boshqa ishlamang!” deb ko'p bora tashvishlanishadi. Ularga javoban Nafisa opaning aytar so'zi shu: “Qo'lim qalam tutolmay qolguncha, ko'zlarim ko'rmay qolguncha ishlayveraman!”

Ustoz hamkasblariga doim kerakli va asqatadigan o'gitlarni berib keladi. “Bilimini o'z o'quvchilaridan qizg'angan o'qituvchi, boyligini muhtojlarga ravo ko'rmagan xasisga tengdir”, degan gaplarini har doim yodimda saqlayman. Bunday o'gitlar biz o'qituvchilarning kasbiy faoliyat yo'limizda haqiqiy pedagog bo'lib, o'quvchilarimiz mehrini qozonishimizda, saviyali, bilimli shogirdlar yetishtirishimizda dasturulamal bo'ladi.

– Shu dargohga ishga kirib go'yo ikkinchi umrimni yashayotganga o'xshayman. Har bir kunim izlanishda, maqola yozish, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish, shogirdlarga yo'l ko'rsatish, yosh avlodga saboq berish bilan go'zal, – deydi ustoz ko'zlarida cheksiz quvonch bilan.

Hozirgi kunda Nafisa opa nafaqada bo'lsa ham ijod qilishdan to'xtagani yo'q. U turk yozuvchisi Namiq

Kamolning “Jaloliddin Xorazmshoh” dramasi o'zbek tiliga tarjima qilgan edi, ushbu tarjima asar 100 tomlik “Jahon adabiyoti durdonalari” to'plamiga kiritildi. “Ona tili va adabiyot ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi” nomli uslubiy qo'llanmasi ham chop etilib, ko'plab o'qituvchilar uchun ko'makchiga aylanib ulgurdi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga bag'ishlangan “Tarhi toza doston haqida o'ylar” deb ataluvchi adabiy monografiyasini o'qigan inson o'zi uchun ko'p narsa oladi.

Mulohazalarim so'ngida Nafisa opaning ijodidan bir she'rni e'tiboringizga havola qilishni joiz deb topdim.

*Qachon kelganingni sezmay qolibman,
Sovuq nafasingdan titradi yurak.
Sochimdagi qirov tashrif qog'ozing
Ekanin anglamay yashayman halak.*

*O'quvchi daftarin eslatar umrim,
Ayrim varaqlari yirtib tashlangan.
Ularning hisobin mendan so'rama,
Men kuygan, men yongan gulxanlar so'ngan.*

*Muhabbat, xiyonat, nafrat, nadomat...
To'rt so'zga qul bo'lib yashamoq og'ir,
Qolgan varaqlarni o'qiylik, kelgin!
Sarlavhasi “Umid. Yaxshilik. Mehr”.*

*Ko'ngil qurg'ur sira qarimas ekan,
Ilhom parisiday yozib tashlabdi,
“Keksalik” deb ismingni oxirgi betga,
Yozay desam, qara, joy ham qolmabdi.*

Qachon kelganingni sezmay qolibman...

Gulnora NORQO'ZIYEVA,
CHDPU “O'zga tilli guruhlarda rus tili va adabiyoti ta'limi metodikasi” kafedrası katta o'qituvchisi

Qadriyat

“Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?”



Tarbiya – o‘zib kelayotgan avlodda hosil qilinadigan bilimlar asosida tafakkur kamoloti – dunyoqarashni, insoniy e‘tiqod, burch va mas‘uliyatni, axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta‘lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta‘minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi” deb belgilangan.

Demak, ota-onalar farzand tarbiyasida Konstitutsiya talablarini bajarishi bilan birga tarbiyaning umumiy, milliy, xususiy mezonlari va vazifalarini bilishi hamda amal qilishi ahamiyatlidir. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida “Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol topirishga, ularning ongini, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”, deb e‘tirof etilgan. Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit bilan bir qatorda oila, ta‘lim tashkilotining mas‘uliyati ham ahamiyatlidir. Zamonaviy tarbiyaning muhim xususiyatlaridan biri – milliyligidir. U o‘zida ma‘lum darajada mukammal tarbiya madaniyatini aks ettiradi. Yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida ishonitirish, tushuntirish, nasihat, ibrat, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullar qo‘llaniladi.

O‘zbek oilalarida milliy tarbiyaning faol omilga aylanishida milliy-madaniy, mafkuraviy, ma‘naviy muhitga bog‘liq munosabatlarni pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronov ilmiy tadqiqotida shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganadi:

1. Bola tarbiyasiga qadimiychasiga yoki avtoritar yondashuv.
2. Liberal – ko‘ngilchan yondashuv.
3. Milliy-zamonaviy, demokratik yondashuv.
4. Marginal yondashuv (boshqa xalq milliy madaniyati asosida tarbiyalash).

Avtoritar tarbiyada ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muomala va munosabatlarda o‘zaro yaqinlik, ochiqlik emas, rasmiyatchilik katta o‘rin tutadi. Ota-ona o‘zini jahldor, bir so‘zli, eng ahamiyatli arbob qilib ko‘rsatadi va buni har qadamda farzandlariga tanbeh berish orqali singdirib boradi. Agar farzand ularning bu talablariga ko‘nmasa ko‘p hollarda jismoniy jazo berish bilan

qo‘rqitadi. Bunday tarbiya natijasida bola o‘z fikrini mustaqil bildira olmaydigan, qo‘rqoq bo‘lib qoladi.

Tarbiyaga liberal yondashuvda ota-ona farzandlariga o‘ta mehribon, yumshoq gapirib, muhabbatini oshkora bildiradi. Ortiqcha erkalash, doim bolaning istagan narsasini muhayyo qilish, ularning ayblarini boshqalardan berkitish yoki salbiy xatti-harakatlarini himoya qilish orqali muhabbat va mehribonlikni soxtalik darajasiga olib chiqadilar. Buning natijasida bola atrofidagilarning hammasi ota-onasiday munosabatda bo‘lishlari kerak degan xulosaga keladi va shuni talab qiladi.

Marginal yondashuvda bolalarni haddan ziyod “zamonaviy moda”da kiyintirib, yasantirishga urg‘u beriladi yoki boshqa xalqlar milliy madaniyati bo‘yicha tarbiyalaydilar. Ota-onalarning milliy tarbiyaga bee‘tiborligi natijasida o‘g‘il-qizlari boshqalar nazarida “tarbiyasi yomon” degan nom chiqarishlari mumkin.

Oilaning burch va mas‘uliyati – bolaning kundalik hayot tarzini to‘g‘ri tashkil etishdan boshlanadi. Bola qaysi vaqtda maktab va to‘garaklarga borishi, uyga qaytishi, dars tayyorlashi, o‘rtoqlari bilan o‘ynashi, uy yumushlariga qarashishi, oila a‘zolari bilan suhbatlashib o‘tirishi, dam olishi, televizor ko‘rish, kino, teatr, hayvonot bog‘iga borishini hamkorlikda belgilash va unga amal qilishga o‘rgatish lozim.

Tarbiyaga kim mas‘ul?

Ba‘zi ota-onalar o‘z vazifalari faqatgina bolaga yaxshi ism qo‘yish, boqish, to‘y qilib, uyli-joyli qilishdan iborat deb o‘ylaydilar. Tarbiya bilan shug‘ullanishga vaqt yo‘q, boqish uchun ishlash kerak, bolalar tarbiyasi bilan ta‘lim muassasasi shug‘ullanishi kerak, degan fikrlarni bildiradilar. Bu toifadagi insonlar farzandi kelajagi, tarbiyasi uchun har kuni, har soat, har daqiqada shaxsiy namuna bo‘layotganini tushunib yetmaydi. Mana shunday holatlar sabab farzandlari qaysi kasbga, ilmga layoqatli ekanini bilmay qoladi. Natijada bolaning xohish va istaklari ham e‘tiborsiz, rivojlanishsiz qoladi. So‘ng kasb tanlash vaqti kelganida “mening aytganimni qilasan”, “shug‘ullanmoqchi bo‘lgan ishing bilan yaxshi pul topa olmaysan”, “men aytgan o‘qishga kirasan”, “o‘qishingni yig‘ishtir, bozorga chiq, o‘qiganlarning bir oyligini bir kunda topasan” kabi noto‘g‘ri maslahatlari bilan o‘z farzandlarining qobiliyatini so‘ndiradilar.



Farzand kelajagini taqdiri hal qiladimi?

“Peshonasiga nima yozilgan bo‘lsa, shu bo‘ladida” deguvchilar bolalarining qanday ilmga, kasb-hunarga moyiligi, iqtidori bilan qiziqmaydi. Hatto farzandi nechanchi sinfda o‘qiyotgani, sinf rahbari kimligini bilmaydigan ota-onalar bor. Qachonki, ota-ona ta‘lim maskani bilan hamkorlik o‘rnatib, bolasining ustoziga hurmat ko‘rsatsa, bola ham o‘qituvchini hurmat qilishga, darslarda mas‘uliyat bilan qatnashishga, o‘rganilayotgan mavzularni yaxshi o‘zlashtirishga harakat qila boshlaydi.

Ota va ona o‘rtasida talabchanlik tengligi

Ba‘zi oilalarning tarbiyaviy tayanchida onalar mavqeyi oshib ketadi. Bunday oilalarda ona o‘zining mavqeyini yuqori qo‘yib, axloq, tarbiya xususida oila a‘zolarini o‘ziga tobe qilishga harakat qiladi. Erkak ham bu holatga ko‘nikkan, chunki u “ko‘chaning odami, ko‘proq pul topishi kerak” degan qoida bo‘yicha harakat qiladi. Vaqt o‘tib bola onasiga gap qaytaradi, baqiradi, ona buni otadan yashiradi. Bu – axloqiy isitma ekanini anglamaydi. Ona bolasi o‘n marta gap qaytarganini otaga aytmaydi. O‘n birinchisini “birinchi marta” deb aytadi. Ona farzandiga bunday “kechirimlilik mehri” uning o‘ziga qarshi ishlayotganini tushunib yetmaydi.

Oila tanazzuli

Ota-onaning farzandlar ko‘z o‘ngida tez-tez janjallashib turishi, oila davrasida oshkora ichkilikbozlik qilinishi oiladagi ahvolga, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir qilishini ayrimlar bilmasmikan?! Uyga mehmon chaqirilganda o‘spirin o‘g‘illarini do‘kondan spirtli ichimlik olib kelishga yuboradilar. Ba‘zan esa o‘spiriniga ham qadah tutib, ichirib “yashang, haqiqiy ota o‘g‘il shunday bo‘ladi” deya maqtab qo‘yadilar. Hozirgi kunda ayollarning ham gap yig‘inlari ko‘payib bormoqda va ayrim yig‘inlarda spirtli ichimlik ichilishi sir emas. Mast holda uyga kelgan onaga qizi yoki kelinini eshik ochadi. Bu oilaning tanazzuli emasmi?

Bolaning ko‘zlari xuddi skaner kabi ota-ona qiyofasi, xatti-harakatlarini o‘zida saqlaydi. Fikri-xayoli maishat, ichkilik bo‘lgan, fahshga berilgan onalar tarbiyalagan bolalar kelajakda qanday shaxs bo‘lib yetishadi? Axloqan

tublanlashgan aslo halol-pok bo‘lmaydi. So‘kong‘ich otalar o‘g‘illariga “so‘kishni kimdan o‘rganding, hey ...so‘kma” deb nasihat qilolmaydi.

Yurtimiz mahallalarida milliy tarbiya, qadriyat va an‘analarga amal qilinadi. Qo‘shnilar mahalladagi barcha bolalarining yurish-turishi, tengdoshlari bilan muloqotlarini kuzatib, kerak payti ularning huquqlarini himoya qilib keladi. Ammo afsuski, ko‘p qavatli binolarda qo‘shnilar bir-birlarini yaxshi tanimaydi. Bir binoda yashayotgan qo‘shni bolalar nima qilayotganlari bilan qiziqmaydi.

Ijtimoiy-tarixiy tajriba sifatida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Tarbiya”, “Tarbiyaning zamoni”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi”, “Axloq tarbiyasi” sarlavhalari ostida tarbiya turlari haqidagi fikrlariga e‘tibor qaratilgan. Avloniy bolani tarbiyalashda bu masalalar muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi: “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur... Emdir ochiq ma‘lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir...”.

Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma‘rifatga ega bo‘lish uchun badan tarbiyasi ham zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumog‘, o‘qutmog‘, o‘rganmog‘ va o‘rgatmog‘ uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir...”. Ma‘rifatparvar “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq derlar. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur. Bir kishi o‘zidan xabarador bo‘lmasa, ilmini, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas...” deb yozadi.

Akram AKMALOV,
pedagogika fanlari nomzodi,
professor,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
xalq ta‘limi xodimi



Huquqiy savodxonlik

Huquqiy savodxonlikni oshiruvchi axborot tizimlari



Jamiyatning normal faoliyati uchun huquqiy axborot zarurdir. Shuning uchun ham bunday axborotni tarqatish va ulardan keng ommaning foydalanishiga imkon berishni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Davriy nashr, kitob, broshyura, kurs va ma'ruza, munozara, mutaxassislarning maslahatlari huquqiy axborotning an'anaviy manbayi hisoblanadi.

Bunday axborotlar hajmining hozirgi keskin ravishda o'sib borishi sharoitida ular o'z qiymatini saqlaydi, biroq huquqiy masalalarni tezkor yechish imkonini bermaydi. Kun sayin ko'plab yangi huquqiy normalarni o'rnatuvchi yoki avvalgilarini o'zgartiruvchi hukumat va idoraviy normativ hujjatlar qabul qilinadi. Ayrim huquqiy hujjatlar ko'p marta o'zgartiriladi, biroq matbuotda, odatda hujjatning o'zgartirilgan qismigina chop etiladi. Hozir huquqiy axborotlashtirish muammosi kompyuterli huquqiy tizim ma'lumotnomasi(HTM) ishlab chiqilgani va ommaviy tarqatilgani tufayli muvaffaqiyatli hal etilgan. HTM hozirgi sharoitda huquqiy axborot bilan ta'minlash darajasiga qo'yilgan quyidagi asosiy talablarga javob beradi:

- to'liqlik;
- dolzarblik;
- hammabop;
- yangi axborotlarni tezkor olish;
- samarali qidirish imkoniyati.

Huquqiy tizim ma'lumotnomasi bu qonunchilik bo'yicha to'liq, tizimlashtirilgan va tezkor yangilanuvchi axborot hamda ushbu axborotlardan foydalanish imkonini beruvchi kompyuter vositalaridir. O'zbekistonda ma'lum va keng tarqalgan "LexUz", "PRAVO" va "NORMA" huquqiy axborot tizimlari mavjud. Foydalanuvchi interfeysini tashkil etishdagi ayrim tafvutlarga qaramay, imkoniyatlari va qidirish tezligi bo'yicha, hajmi va yig'ilgan axborotlar sifatini bo'yicha barcha tizimlar o'xshash funksional tuzilishga ega. O'ziga xos huquqiy axborot tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- kontekst va rubrikator bo'yicha hujjatlarining qidiruv vositalari;
- rekvizitlar bo'yicha hujjatlarining qidiruv vositalari;
- gipermatn havolalar bo'yicha ma'lumotlar bazasidagi navigatsiya mexanizmi;
- hujjatning matn va ro'yxatlari bilan ishlash modullari;
- ma'lumotlar bazasini yangilash mexanizmi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasining axborot qidirish tizimi(QHMMB AQT "LexUz", yoki "LexUZ") O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi "Qonun hujjatlarini turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-qaroriga asosan yaratilgan. QHMMB AQT "LexUz"ning maqsadi – aholining huquqiy madaniyati darajasini ko'tarish, normativ-huquqiy hujjatlaridan yuridik va jismoniy shaxslarning keng foydalanish imkoniyatini ta'minlash, jamiyatni huquqiy axborotlashtirish tizimini takomillashtirish. LexUZ foydalanuvchilarga QHMMBda internet orqali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi va bunda:

- normativ-huquqiy hujjatlarining tarkibiy qismlari va rekvizitlari, shuningdek, yuridik tahlil kartochkalaridagi ma'lumotlari asosida, ya'ni:
- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tarmoqlari umumhuquqiy klassifikatori bo'yicha;
- qonunchilikning mavzuli ma'lumotnomasi bo'yicha;
- tushuncha va terminlar ma'lumotnomasi bo'yicha;
- alfavit-predmetli ko'rsatkich bo'yicha ko'p mezonli, keng qamrovli qidirish imkonini beradi.

Izlash natijalarini jadval qatorlari ko'rinishida aks ettiriladi va ular bilan ishlashning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- tanlangan hujjatlarni rekvizitlari bo'yicha saralash;
- tanlangan hujjatlarni rekvizitlari bo'yicha guruhlash;
- hujjatlar bilan ishlash uchun natijaviy jadvalda ularni tanlash;
- izlash natijasida tanlangan hujjatlariga oid barcha ma'lumotlarni olish;
- hujjatlarga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarning xronologik tarixini ko'rish;

- hujjat matnini alohida oynada ochish;
- hujjat matnining foydalanuvchi tanlagan sanadagi holatini ko'rsatish;
- "havolalar xaritasi" – tanlangan hujjatga nisbatan correspondent/respondent hujjatlar ro'yxati;
- hujjat tarkibida rasmiy matn qatori-da norasmiy axborotlarni (tushuntirish va izohlar kabi) aks ettirish;
- hujjat tarkibida matn, jadval, rasmlar va grafiklarni aks ettirish;
- foydalanuvchi ishlagan hujjatlar tarixini avtomatik tarzda tizimda saqlab qolish va bunda:
- tanlangan hujjatlar ro'yxatini saqlab qolish;
- izlash shartlarini saqlab qolish;
- foydalanuvchi ishlagan hujjatlar tarixini tizimda saqlash;
- foydalanuvchi ma'lumotlarini va interfeysini o'zbek va rus tillarida olib borish;
- bazaga kiritilgan hujjatlar haqida elektron pochta orqali xabar yo'llash mumkin.

"LexUZ" QHMMB AQTga 15 500 dan ortiq hujjatlar, jumladan, Konstitutsiya, 15 ta kodeks, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari, idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'zbek va rus tillarida kiritilgan. "NORMA" axborot-huquqiy tizimi "Norma-Hamkor" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasida 1999-yil 1-noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. U elektron davriy nashrlar va boshqa ma'lumotlar bazalarini, jumladan tushuntirish-uslubiy mazmunidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Ma'lumotlar bazalarini takomillashtirish va dastur ta'minotini yaxshilash ishlari tinimsiz olib borilmoqda.

"NORMA" axborot-huquqiy tizimi bu zamonaviy texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan universal qobiqli, tarkibi bir nechta mavzuiy bazalardan iborat, o'zaro havolalar va kuchli qidiruv imkoniyatiga ega bo'lgan ko'p funksiyali gipermatn muhitida ishlashni amalga oshiruvchi ma'lumotlar bankidir.

"NORMA" tizimi Windows imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga foydalanuvchi bilan do'stona muloqotni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu tizimda atigi ikki-uch soat davomida ishlash natijasida foydalanuvchi tizim bilan ishlashning asosiy ko'nikmalariga ega bo'ladi. Hujjatlar bilan ishlash, qidiruvdan foydalanish, havolalar hosil qilish va zamonaviy poligrafiya talablariga mos ravishda hujjatlarni chop etish uchun bu ko'nikmalar yetarli bo'ladi.

Foydalanuvchilarning axborot tizimlariga murojaati ko'p jihatdan hujjatni faqat topishgagina emas, balki qo'yilgan topshiriq yoki muammoni to'g'ri ifodalashga bog'liqligidan kelib chiqadi. Shuning uchun juda tezkor va malakali qaror qabul qilish quroli bo'lib xizmat qiluvchi axborot tizimi mukammal hisoblanadi. Tizimda joylashgan hujjatlar soni va spektri, qidirish turlarining har xilligi, hujjatlar bilan tahliliy ishlash imkoniyatlari va huquqiy axborot tizimlarining servis funksiyalari foydalanuvchi uchun huquqiy axborot tizimining muhim jihati hisoblanadi.

Mutaxassisning ish unumdorligi uning ish vaqti qanchalik ratsional sarflanishiga bog'liq, huquqiy axborot tizimidan foydalanish esa kerakli huquqiy hujjatlarni qidirish uchun zarur bo'lgan vaqtni kamaytirishga hamda amallarni qisqartirishga imkon yaratadi. Kompyuter tizimi qanchalik ko'p axborot yetkazish imkoniyatiga ega bo'lsa, barcha kerakli hujjatlarning qo'l ostida bo'lishi ehtimoli shunchalik ko'p. Huquqiy axborot tizimida saqlanadigan materiallar miqdori ma'lumotlarni qayta ishlovchining axborot imkoniyatini va uning mahsulini ko'rsatadi. Shu bilan birga foydalanuvchining qanday turdagi va ko'rinishdagi huquqiy axborot olishi mumkinligi ham muhim ahamiyatga ega. Kirish mumkin bo'lgan axborot spektri qanchalik keng bo'lsa, huquqiy boshqaruvning barcha qismlari va jihatlarini e'tiborga olgan holda, huquqiy muammolarni hal etishga shunchalik jiddiy va asosli yondashish kerak.

Muhabbat XOLIQOVA,
TDYU ARM axborot texnologiyalari
bo'yicha yetakchi mutaxassisi,
Zilola TOLIPOVA,
TDYU ARM 2-toifali kutubxonachisi

Kitobxonlik — o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi!



Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni, axborot oqimining tezlashuvi va mafkuraviy xurujlarning ortib borayotgani sabab axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Cheksiz axborot oqimi orasidan kerakli ma'lumotlarni ola bilish, badiiy adabiyotni to'g'ri tanlash, undan estetik zavq olishni o'rgata olsak, yoshlarimiz sayoz axborotlar bilan o'ralashib qolmasdi. Filologiya fanlari doktori, professor Safo Matchon: "Kitobxonlik — o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni nechog'li uqishi, ya'ni asar "tili"ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi", deb yozadi. Uning fikricha, kitobxonlik tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: "Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman".

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab va ota-

ona zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli, bilimli bo'lishlari kerak. Bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Buning uchun dastlabki turki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi bilan shakllanadi. Kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida, uning ma'naviy hayotining barcha sohalari — mehnat, o'yin, musiqa, ijodida o'z samarasini beradi.

Ota-onalar farzandlari bilan Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirzakalon Ismoiliiy kabi adiblarimiz uy-muzeylariga sayohatga borishsa, bolalarda ham ziyo-li insonlar yashash tarziga havas, hurmat uyg'onar edi. Uylarning dabdabali bo'lishi emas, shinam va ozoda, eng muhimi kitoblarga to'la bo'lishi yaxshiroq ekanini biz ana shunday oqilona yo'llar bilan bolalarga singdirsak bo'ladi.

Olimlarning fikricha, bir odam butun umri davomida 2000 ta kitob o'qiy olish imkoniyatiga ega ekan. O'smirlik yillarida bola o'qigan kitob unda bir umrga iz qoldirishi muhim. O'smir endi bolalik davridan o'tgan. U kitobni yozuvchining badiiy mahoratiga qoyil qolib, so'zning hissiy bo'yog'idan ta'sirlanib, uni idrok qilib o'qishga o'tadi.

Shunday ekan, o'ziga yoqib qolgan kitoblar bilan oilasining shaxsiy kutubxonasini boyitib boradi yoki o'zi shaxsiy kutubxona tashkil etish tashabbuskori bo'ladi.

Har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj seza-di. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan nariga o'tmayotgani bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkon bo'lmayapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havas bolalikdan paydo bo'lmagach, inson keyinchalik ham kitob o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi.

Malika MAHAMMATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish"
kafedrası o'qituvchisi

“Dolzarb 90 kun”



Yozda ham maktabda...

Ayni damda mamlakatimiz maktablarida o'quvchilar yozgi ta'limni maroqli va mazmunli o'tkazishi uchun turli fan to'garaklariga qatnashmoqda. “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni kasbga yo'naltirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ham ko'zda tutilgan.

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani-dagi 5-maktabda ham bir nechta fan to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Bular qatorida “Smart Kids English” ingliz tili to'garagi alohida ahamiyatga ega. To'garak mashg'ulotlari haftasiga uch marotaba, belgilangan jadval asosida o'tkazilib, 3–7-sinf o'quvchilari faol ishtirok etmoqda. Darslar asosan o'yinli metodlar, interaktiv mashg'ulotlar, role play (rolli o'yinlar), inglizcha multfilm tahlili, yangi so'zlar bilan ishlash kabi uslublar asosida tashkil etilmoqda.

To'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning lug'at boyligi oshgani, ularning talaffuz va grammatik bilimlari mustahkamlanayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, og'zaki nutq bilan ishlashga

e'tibor kuchaytirilib, har bir ishtirokchiga shaxsiy yondashuv asosida topshiriqlar berilmoqda. To'garak a'zolari yozgi loyihalar, ingliz tili viktorinalari, she'riy chiqishlar orqali o'z iqtidorlarini namoyon etishmoqda.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Maktabimizda tashkil etilgan “Smart Kids English” to'garagi bunga yaqqol misoldir. Bunday tashabbuslar nafaqat bolalarning ta'lim sifatini oshiradi, balki ularni ijtimoiy faollik sari yetaklaydi.

Nodirabegim TURG'UNOVA,
Uchko'prik tumani-dagi
5-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Dinmuxammadiyeva Dilorom Raximjan qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Yuvenil idiopatik artriti laborator tashxislash va standart davolashning korreksiya qilish usulini ishlab chiqish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Shadiyeva Sodat Ulmasovnaning 14.00.09 – Pediatriya hamda 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Konstitutsiyaviy anomaliyalar va D vitamini tanqisligi holatlari bo'lgan bolalarda o'tkir diareyalar kechishining klinik va patogenetik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Boboyeva Mohim Shukurovnaning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “O'zbekistonda jamiyat transformatsiyalashuvi sharoitida ekologik barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz



ANGREN UNIVERSITETI 2025-2026-o'quv yili uchun quyidagi lavozimlarga TANLOV E'LON QILADI:

“Aniq va texnik fanlar” kafedrası: professor; dotsent.	“Iqtisod va moliya” kafedrası: professor – 2 nafar; dotsent – 2 nafar.
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası: professor – 1 nafar; dotsent – 2 nafar.	“Umumdavolash ishi” kafedrası: professor – 2 nafar; dotsent – 2 nafar.
“Til va uni o'qitish metodikasi” kafedrası: professor – 1 nafar; dotsent – 1 nafar.	

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- universitet rektori nomiga ariza;
- xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumoti, ilmiy daraja va unvoni haqidagi diplom nusxalari;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlar ro'yxati;
- malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjat nusxalari;
- fuqarolik pasporti (yoki ID karta) nusxasi va elektron mehnat daf-tarchasidan ko'chirma.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: tanlovda ishtirok etish uchun kafedrada mutaxassislik fanidan “Ochiq dars” o'tkazilishi nazarda tutiladi.



Manzil: Angren shahri,
“Ozodlik” MFY,
Fleyshmaxer
ko'chasi, 2-uy
Murojaat uchun:
(55) 901-88-80,
(93) 668-79-09;
e-mail:
auni1975as-
@gmail.com

Abdilhamidov Abbos Abilaboyevichning 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya ixtisosligi bo'yicha “O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasining ma'naviy omillari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135101 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy. Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Batirov Farxod Avazovichning 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya ixtisosligi bo'yicha “Kibertahdidning jamoat xavfsizligiga ta'siri va uning oldini olishning ma'naviy-axloqiy omillari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135101 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 19-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy. Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Arziqulov Elboy Azim o'g'lining 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya ixtisosligi bo'yicha “Yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135/01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 19-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy. Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz



Qo'ng'iroq chalinguncha

RAMAZON HANGOMASI

(Bo'lgan voqea)

Oylarning sultoni – ro'zayi ramazonning dastlabki kunlaridan biri edi. Olloh rizoligi uchun ro'za tutgan Naim aka bilan usta Fozil erta sahar uchrashdilar. So'ng odatdagidek bomdod namozini masjid jamoati bilan ado etishga oshiqishdi.

Naim aka boshqaruvidagi yengil mashina o'nqir-cho'nqir yo'ldan qo'shni qishloqqa kirdi. Ikki qishloqni tutashtirgan bu yo'l qachonlardir asfalt qilingan bo'lib, hozir qariyb yaroqsiz ahvolga kelib qolgan.

Mashina chiroqlari yo'lining ikki yonidagi hovlilarni yoritib, manzil sari intiladi. Shu payt bu chiroqlar yo'l o'rtasida cho'qqayib tikka turgan bir qarich bo'yli narsani yaqqol yoritdi.

– Iya, marmartosh-ku!? – dedi hushyor tortib usta Fozil.

– Ko'rdim, yo'l o'rtasida qoqqan qoziqday turibdi, – dedi bamaylixtor ohangda Naim aka.

– Ishqilib hech kimga shikast yetkazmasinda!? – deya usta Fozil yon-atrofga ko'z yugurtirdi. Ular masjid jidda bomdod namozini o'qib qushdek yengil bo'lib chiqishdi. Kayfiyatlari ko'tarilib, qalblari halovatda mashinaga o'tirdilar.

Ko'p o'tmay mashina yo'l o'rtasida hamon cho'nqa-

yib turgan marmartosh yonidan o'tganda, tag'in ularning dillari xira tortdi. Garchi marmartosh mashinalar qatnoviga xalaqit bermasa-da, yo'l o'rtasida turishi beo'xshov edi!

Naim aka ulov boshini ortga burib, kelgan tarafga haydadi. Mashina chiroqlarining nuri haligi marmartoshni yoritib, to'xtadi. Usta Fozil yuz bergan vaziyatni to'g'ri anglab, darhol mashinadan tushdi. O'zidan uch-to'rt qadam naryoqdagi marmartosh tepasiga keldi. Keldi-yu, tik turib qoldi. Chunki haligina cho'nqayib turgan marmar tosh, ne ajabki, yotgan holatda edi.

Usta Fozil bir zum o'yg'a tolib, keyin engashgan-cha marmartoshga yuzlandi. So'ng uni avaylab, ikki qo'lda dast ko'tarib, mashinadan kuzatib turgan Naim akaga: “Ko'ring marmartoshning yotgan holatini...” deb imo-ishora qildi. Keyin yo'l chetidagi baland bo'yli qalin temir to'siq ostiga marmartoshni qo'ydi.

Bu payt tong yorishib kelayotgandi.

– Mo'jiza, – dedi usta Fozil mashina o'rindig'iga o'tirar ekan hayratini yashirolmay. – Axir mashinadan ko'rganimda marmartosh yo'l o'rtasida tikka turgandi. Hozir olishga borsam, transportga xavfsiz, yiqilgan holatda turibdi. Tavba qildim-ey!

– Ollohning bizga bir sinovi bu, Fozil aka, – dedi ishonch bilan Naim aka. Keyin qo'shimcha qildi:

– Bizning savob olishimiz uchun bu marmartosh bir imkoniyat yaratdi, nazarimda!

– Haaa, – deb darrov duoga qo'l ochdi usta Fozil: – Ramazon oyida rahmat eshiklari ochiq, ibodatlarimizni Olloh o'z dargohida qabul qilsin. Savobli ishlar qilishda bardavom bo'lish hammaga nasib etsin, ilohim!

Qissadan hissa: Har bir to'siq – insonlarga qulaylik yaratish orqali savob olishimiz uchun bir imkon.

Hakim KAMOLOV,
nafaqadagi o'qituvchi

Shofirkon tumani

Bahor manzarasi

Bulutlar chopqillar,
Yog'adi yomg'ir.
Kurtaklar kikirlar,
Yashil dala, qir.

Hayot davom etar,
Erib bitar qor.
Yurtimda sevinib
Bo'y cho'zar bahor!

Bodom meva tugdi,
Gulladi o'rik.
Qizlar quvonchiga,
Qaldirg'och sherik.

Olam go'zalligi
Boshqacha ajib.
Asta kirib keldi,
Bahor jilmayib!

Mahmudjon HAYDAROV,
Asaka tumanidagi
10-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Navro'z keldi

Salom bahor, salom yangi kun!
Uyg'onmoqda dalalar, bog'lar.
Qishning qattiq ozori tugab,
Chekinmoqda ayoz-u qorlar.

Qaldirg'ochlar chug'ur-chug'uri,
Orom berar dillarimizga.
Sumalakning xushbo'y hidlari,
Malham bo'lar qalblarimizga.

Moychechakdan yasab guldasta,
Qizaloqlar chopib yuradi.
Qirqta o'rim jamalaklardan
Navro'z hissi yelib turadi.

Navro'z quloch yozmoqda yurtga,
Polvonlarin chorlab davraga.
Dorbozlari uchar ko'klarga,
Bolajonlar ko'rib hayratda.

Varraklarni uchirib chopgan
Bolalarning yuzida kulgu.
Tinchlik so'rab ona eliga,
Nuroniylar qo'lida duo.

Yarashadi bunda bayramlar,
Dilga ko'chgan
Navro'zning zavqi.
Har fashning o'z ziynati bor,
Lek bahorning o'zgacha tafti.

Sharofat XO'JAYOROVA,
Qarshi shahridagi
46-maktabning rus
tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi

Olloh qo'llagay

Kimning dilda iymoni bor,
Pok yuragi vijdoni bor,
Rost so'z aytar zaboni bor,
Ularni Olloh qo'llagay,
Nuri hidoyat yo'llagay.

Kimki yetim boshin silar,
Hammaga yaxshilik tilar,
Ezgu ishlar uchun yelar,
Ularni Olloh qo'llagay,
Mehr-u saxovat yo'llagay.

Kimning ochiq bo'lsa qo'li,
Doim toza bo'lsa ko'ngli,
Ezgulikdir tutgan yo'li,
Ularni Olloh qo'llagay,
Xayr-u barokat yo'llagay.

Po'lat aytadi: ey ko'ngil,
Nafsinga sen bo'lmagin qul,
Doim boriga shukr qil,
Seni ham Olloh qo'llagay,
Sabr-u qanoat yo'llagay.

Po'lat MANSUR,
faxriy o'qituvchi

Qiziltepa tumani

Yolg'izlik

Qirda o'sgan daraxtman yolg'iz,
Atrofim qurigan maysaga to'la.
Ayovsiz shamol esadi hadsiz,
Uzoq-uzoqlarga taratib nola.

Shamol tortqilaydi nimjon shoxlarim,
Bag'rimga sochadi chang-g'uborini.
Osmon chelagidan suv quyar lim-lim,
Eshitmas daraxtning ohi zorini.

Kuyunma hech men ham sen kabi
Qirda o'sgan yolg'iz daraxtman.
Atrofimda tikonlar to'la
Keng olamda misli bir xasman.

Sen-ku daraxt, men axir inson,
Bir dardkashni izlayman yolg'iz.
Gar uchrasa bir dam nogahon,
Bag'ri butun bo'lmaydi hargiz.

Qirda o'sgan daraxtman yolg'iz,
Atrofim qurigan maysaga to'la.
Ayovsiz shamol esadi hadsiz,
Uzoq-uzoqlarga taratib nola.

Sinfdosh qizga

Xayr deymayman ortga qayrilib,
Navnihol sevgilim, sinfdosh qizim.
Ko'zlarimga boqib uqib olmading
Qalbmimdagi olov, muhabbat izin.

Sevaman deymay sochlaring tortdim,
Izhor bitilmagan nomalar otdim.
Kechir, senda doim nafrat uyg'otdim,
Xayr deymayman, sinfdosh qizim.

Mo'jaz sinf bo'lgan edi koshona,
Do'st-sinfdosh edi misol g'amxona.
Ko'rinmasmu bular endi vayrona,
Xayr deymayman, sinfdosh qizim.

Notanishni erkalatib suyгим yo'q,
Ishon menga, sendan umid uzgim yo'q.
Isming atab qizimga ham qo'ygim yo'q,
Xayr deymayman, sinfdosh qizim.

Atrofim to'ladir go'zal sanamga,
Sevdim nima qilay sinfdosh qizni.
Bolaligim birga kechgan sevgimga
Teng kelmas asl go'zallar husni...

Yillar o'tdi, yillar ortidan
Ohim yetib bordi osmon-falakka.
Oshdi amalga xolis niyatim
Umr yo'ldosh bo'ldim o'sha malakka.

Sanobarxon OMONOVA,
Marhamat tumanidagi
38-maktabning tarix fani
o'qituvchisi



Ismailova Ma’rifat Baxrambek qizining 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo’yicha “Ingliz tilini o’qitishda B2 darajadagi talabalarining strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo’li ko’chasi, G-9 A mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Tashanov Abduxoliq Daynovichning 09.00.07 – Ma’naviyat tarixi va nazariyasi ixtisosligi bo’yicha “Jamiyatda buzg’unchi g’oyalarning vujudga kelishi va ularga qarshi kurash omillari” mavzusidagi (falsafa fanlari bo’yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135/01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko’chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Davlatova Aziza Aripjanovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo’yicha “Og’iz bo’shlig’i yallig’lanish kasalliklarining tug’ruqdan keyingi septik asoratlar rivojlanishiga ta’sirining klinik va immunologik asoslari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 1-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Babajanov Rustam Yuldashovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Ommaviy sportni rivojlantirish jarayonida inson kapitalidan samarali foydalanish metodikasi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 2-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz

Isroilov Abrorjon Adiljonovichning 14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo’yicha “Bolalarda ikki tomonlama ingvinal kriptorxizmning xirurgik davo taktikasini takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Bolalar milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/01.02.2022.Tib.147.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 2-iyul kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100171, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko’chasi, 294-uy.
Tel/faks: (55) 503-00-03; e-mail: info@bmtm.uz

Abdulkayeva Dilnoza Ravshanovnaning 14.00.38 – Sport tibbiyoti ixtisosligi bo’yicha “Kurashchilarda jismoniy zo’riqishning oshqozon osti bezi sekretor funksiyasiga ta’siri” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 1-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil:100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (71) 241-38-03, 241-30-93; e-mail: medsport@gmail.com

Ziyadullayev Abdusalom Xabibulla o’g’lining 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya ixtisosliklari bo’yicha “Tizza bo’g’imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida davolashning klinik-morfologik asoslari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 30-iyun kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Aslonova Marjona Ramazonovnaning 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo’yicha “SARS-CoV-2 pnevmoniyaning qandli diabetning 2-tipi bilan birgalikda kelishi yakuni istiqbolini belgilovchi immuno-biokimyoviy indikatorlar” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 30-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Nurova Zarnigor Hikmatovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo’yicha “Kardioembolik insultning erta nevrologik asoratlari tashxislash va davolashni optimallashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Xusainboyev Shoxruxbek Davronbekovichning 14.00.38 – Sport tibbiyoti ixtisosligi bo’yicha “Baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning yelka bo’g’imlari jarohatlarini jismoniy reabilitatsiya qilish dasturini ishlab chiqish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/31.10.2024.Tib.102.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Jabborova Dilafro’z Xo’jamurodovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo’yicha “Jigar noalkogol yog’li kasalligi rivojlanishida me’da osti bezi steatozining ahamiyati va metabolik buzilishlarning korreksiyasi” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.30.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Forobiy ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25, (71) 214-83-11;
veb-sayt: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

Yuldashov Sanjarbek Ilhom o’g’lining 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo’yicha “Allergik asoratli anamnezi bo’lgan bemorlarda arterial gipertenziyaning immunopatogenezi xususiyatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 16-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G’ulomov ko’chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30;
veb-sayt: www. immunologiya.uz, e-mail: immunologiy@akademy.uz

Boboyeva Nigora To’xtamishevnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo’yicha “Chaqaloqlar cho’zilgan giperbilirubinemiyaasida metabolik status va yallig’lanish markerlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.102.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Kurbonov Najmiddin Abduxamidovichning 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo’yicha “Ikki o’qi bo’yicha qo’zg’atiladigan sinxron kompensatorning ishlash ishonchligini oshirish” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2021.T.143.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 9-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do’rmon yo’li ko’chasi, 40-uy.
Tel/faks: (55) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz

Sadikova Nozima Baxodirovnaning 14.00.09 – Pediatriya hamda 14.00.20 – Tibbiy genetika ixtisosliklari bo’yicha “Koronavirus(COVID-19) infeksiyasiga chalingan qaytalanuvchi bronxit bo’lgan bolalarni klinik-genetik va reabilitatsion chora-tadbirlarini optimallashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog’ishamol ko’chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Abdullayev Ibadulla Abdullayevichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo’yicha “Yoshlar tarbiyasida axloq va din uyg’unligining ijtimoiy-falsafiy tahlili” mavzusidagi (falsafa fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 15-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko’chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Karimov Nozimjon Alijonovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichidagi g’ovlar osha yuguruvchi sportchilarni harakat ritmiga o’rgatish uslubiati”(Методика обучения двигательному ритму спортсменов-барьеристов на этапе начальной подготовки) mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (97) 689-10-92; e-mail: uzsport.science@gmail.com


Quvvatova Zilola Risqul qizining 19.00.04 – Sport tibbiyoti ixtisosligi bo’yicha “Bokschilarda o’z-o’zini boshqarishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi (psixologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (71) 241-38-03, 241-30-93; e-mail: medsport@gmail.com



KITOBBLAR

HAQIDA XITOBBLAR



Kitoblar shunday qudratli kuchki, ular undaydi, majbur qiladi, ishontiradi.

Qarangki bu dunyoning ibtidosi ham soʻz(kitob), intihosi ham soʻz(kitob).

Kitoblar bizga xohlagan vaqtda, xohlagancha maslahat bera oladi.

Bilaman, oʻgʻrilik yomon illat. Ammo baʼzan oʻylab qolaman: kitob oʻgʻrisini kechirish kerakmikan...

Millatning ertasini kitob doʻkoniga kirgan bolalarda koʻrish mumkin.

Kitobsiz koshona uydan, kitoblari bor xaroba uy afzal.

Goʻdakning birinchi eshitgan qoʻshigʻi bu – alla. Alla bu – soʻz. Soʻz esa kitoblarda boʻladi. Kishi boqiyga rixlat qilganda ham unga Qurʼon tilovat qilinadi. Demakki, inson umri kitobdan kitobgacha ekan, uni chiroyli yozaylik. Toki farzandlarimiz uni oʻqishda qiynalishmasin.

Insonlar bor, zohiran chiroyli, botinan qashshoq. Kitoblar bor, faqat muqovasi chiroyli.

Yaxshi kitoblar boʻlmaganda odamlar allaqachon bir-birlarini yeb tugatishardi.

Hatto qiladigan yaxshi-yomon amallarimiz ham nomayi aʼmollarimizga(kitobimizga) yozib boriladi.

Farzanding noqobil chiqdimi, xafa boʻlma. U oʻzing yozgan kitobingni oʻzingga oʻqib berayapti, xolos.

Eng yoqimli xarid – kitob sotib olish uchun qilingan xariddir.

Yer yuzida bittagina ustoz, bittagina shogird va bittagina kitob qolsa ham yaxshi kunlarga umid bogʻlash mumkin.

Quyosh chiqqach, oy soʻnganidek, kitob oʻqigan inson bilan kitob oʻqimagan insonning fikri hech qachon uygʻunlashmaydi.

Qizining sepiga aqalli bittagina kitob qoʻymagan ona, oʻzidek yana bir mol-parastni tarbiyalapti.

Agar kitob doʻkonlari supermarketlarday katta va chiroyli boʻlganda edi, yer yuzida urushlar boʻlmasdi.

Oilaviy ajrimlarning aksariyati er-xotinda maʼnaviyat yetishmasligidan, kitob oʻqimaslikdan kelib chiqadi.

Garchi chanqab turgan boʻlsangizda, kitob oʻqib oʻtirgan homilador ayolni chalgʻitmaydi.

Kitob oʻqing yoki uni targʻib qiling. Yoxud kitoblarga homiylik qiling. Aminmanki, uchala holatda ham avlodingizdan ziyolilar chiqadi.

Agar siz bolangizga bitta kitob olib bersangiz, kun kelib bolangiz sizga Baytullohga chipta olib beradi, inshoolloh.

Qaniydi har bir uyda Alisher Navoiy, Bobur, Choʻlpon, Qodiriy, Abdulla Oriyov, Erkin Vohidov, Chingiz Aytmatov,

Togʻay Murod, Tohir Malik, Usmon Azim, Pushkin, Yesenin, Dotoyevskiy, Kafka, Stendal, Xemenguey... “boʻlsa”.

Ota-ona, quyosh va kitoblarda bita umumiylik bor. Ular oʻzidagi borini boshqalarga beradi-yu, evaziga hech narsa soʻramaydi.

Kitobxonlar boʻlib, kitoblar yoʻqligi fojea emas. Kitoblar borligi-yu ularni oʻqiydigan millatning yoʻqligi fojea.

– Shuncha kitob oʻqib, nima topding?
– Oʻzimni topdim.

Kitob oʻqimaydigan kishida shaxsiy fikr boʻlmaydi. Shaxsiy fikriga ega boʻlmagan kishining quldan farqi yoʻq. Qulni esa boshqarish oson. Sizni “boshqarishlarini” istamasangiz kitob oʻqing.

Sen menga qanday kitoblar oʻqishingni ayt,
Men senga kimligingni aytib beraman.

Har qanday mahsulot va moddiy boyliklarning amal qilish muddati bor. Ammo kitoblar bundan mustasno.

Kitob oʻqishning avvali mashaqqat, oʻrtasi kamtarlik, oxiri rohatdir.

Hayotda kitob oʻqishdan boshqa hamma narsaning meʼyori bor.

Bolalikda sevib oʻqigan kitobingni sevib oʻqiy oladigan paytgacha qarimaysan.

Dunyoda nonning, onaning, goʻdakning va kitobning hididan koʻra yaxshiroq hid yoʻq.

Sen birovdan oʻqib turishing uchun kitob soʻrasang, ikkilanmay soʻra. Ammo vaqtida qaytar.

Birov sendan oʻqib turish uchun kitobingni soʻrasa, ikkilanmay ber. Ammo vaqti kelsa, indamay qoʻya qol. Chunki birinchi holda bitta yaxshilik boʻlsa, ikkinchisida oʻn karra yaxshilik bor.

Erkinjon YARASHEV,
Zarafshon shahridagi 13-IDUM
fizika fani oʻqituvchisi

Maʼrifat

TAʼSIS ETUVCHILAR:

Oʻzbekiston maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi,
Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-5985. Tiraji-5728.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qogʻoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50



“Maʼrifat” dan materiallarni koʻchirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent koʻchasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Gazetaning saytiga oʻtish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

“Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy koʻchasi, 30-uy.

